

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

ORGANIK SINTEZ KAFEDRASI



**“ORGANIK SINTEZ” fanidan
O’quv –uslubiy qo’llanma
1-qism**



Ta’lim sohasi: 510000– Sog’lijni saqlash

Ta’lim yo’nalishi: 5510500 – Farmatsiya (turlari bo’yicha)
5111000 – Kasb ta’limi (5510500 – Farmatsevtika ishi)
5510600 – Sanoat farmatsiyasi (turlari bo’yicha)
5320500– Biotexnologiya (Farmatsevtik biotexnologiya)
5310901 – Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot
sifati menejmenti (Dorivositalari)

Toshkent-2021

Tuzuvchilar:

Po'latova F.O.-dosent, organik sintez kafedrasi mudiri
Olimova M.I.-organik sintez kafedrasi assistenti
Mamataliyeva A.A.-organik sintez kafedrasi assistenti
Nuritdinova R.R.-organik sintez kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

Yakubov U.M. - k.f.n. O'simlik moddalari kimyosi instituti organik sintez va o'simliklarni himoyalash laboratoriyasi katta ilmiy xodimi.

Chinnibekova N.K.- Organik va biologik kimyo kafedrasi katta o'qituvchisi.

Ushbu o'quv qo'llanmada organik sintez fanidan laboratoriya ishlarini bajarilish tartibi va olingen mahsulotlarni xisoblash usuli keltirilgan bo'lib, har bir mavzudagi sintez qilingan moddalarni ishlatalishi va farmakologik xususiyatlari haqida bayon qilingan. Har bir mavzuni mustahkamlash uchun pedagogik tehnologiyalar, test savollari, masala va mashqlar berilgan. O'quv qo'llanma farmasevtika instituti Farmatsiya (turlari bo'yicha), Kasb ta'limi, Sanoat farmatsiyasi, Biotexnologiya, Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti va boshqa yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Toshkent farmasevtika institutining uslubiy kengashi tomonidan nashr etishga ruhsat berildi.

KIRISH

Hozirgi kunda organik sintez fani juda tez su'ratlar bilan rivojlanmoqda. Organik sintez fani ishlab chiqarish bilan bevosita aloqadordir. Organik moddalar turmush va sanoatning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Organik sintez fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishda innovatsion va informatsion tehnologiyalardan hamda fanning takomillashtirilgan an'anaviy usullaridan foydalaniladi. Kimyoviy tajribalarni ko'rgazmali o'tkazish, usullarini egallash talabalarda bilim, ko'nikma va malaka hosil bo'lismiga olib keladi.

Talabalar organik sintez faniga oid bilimlarni mukammal egallashi, fanning dolzARB masalalaridan xabardor bo'lishi va olgan bilimlarini farmasevtika sohasiga qo'llay olishi kerak.

O'quv metodik qo'llanmada oily o'quv yurti dasturiga asosan barcha mavzularga xos tajribalar berilgan.

ORGANIK SINTEZ LABORATORIYASIDA TEXNIKA HAVFSIZLIGI QOIDALARI

Organik sintez laboratoriyasida laboratoriya ishini boshlashdan avval, talaba texnika havfsizligi qoidalari bilan tanishib chiqishi shart va maxsus daftarga imzo chekishi lozim. Laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligi unga talabalarining e'tibori, nazariy bilimining chuqurligi bilan belgilanadi. Shuning uchun har bir talaba bajariladigan ishning nazariy ma'lumoti haqida xabardor bo'lsagina, bajaradigan ishining izchilligi haqida tasavvurga ega bo'lsagina ishni bajarishga ruxsat beriladi. Kimyo laboratoriyasida tajribalar o'tkazish uchun talabalar quyidagi ehtiyyot choralarini ko'rishi kerak:

1. Har qaysi laboratoriya ishi belgilangan joyda bajarilishi shart.
2. Mashg'ulot paytida talaba maxsus kiyimsiz (xalat) ishlashi mumkin emas.
3. Mashg'ulot rejasida ko'rsatilmagan ishlarni bajarishi ta'qiqlanadi.
4. Laboratoriyyada ishlaganda ozodalikka, saranjomlikka va havfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilishi lozim. Shoshilish va havfsizlik qoidalariiga rioya qilmaslik tajribada xatolikka yo'l qo'yishga va ko'ngilsiz hodisalarga olib keladi.
5. Tajribani rahbarning ijozati bilan boshlash lozim. Ishni bajarish tartibi laboratoriya daftariga yozilishi va uni rahbar tekshirib ko'rgan bo'lishi lozim.
6. Agarda reaktivlarni hididan aniqlamoqchi bo'lsangiz, uni og'zidan o'zingizga tomon ohista yelpib hidlang.
7. Kontsentrlangan kislotalarni suyultirishda kislotani suvgaga jildiratib quyib, aralashtirib turgan holda suyultiring. Suvni kislotaga quyish mumkin emas.
8. Reaktivlarni probirkalarga quyishda ularni gavdangizdan uzoqroqda tuting.
9. Qizdirilayotgan reaktiv ustiga engashib qaramang.

10. Probirkaga biror modda solib qizdirayotganingizda uni og‘zini o‘zingizdan va yoningizdagi sheringizingizdan chetga buring.
11. Elektr asboblari bilan ishlashda, uni to‘liq izolyatsiyalanganligiga ishonch hosil qilmasdan turib ish boshlamang.
12. Benzin, spirt, efir va shu kabi oson o‘t oluvchi moddalar o‘t olib ketsa, qum sepib o‘chiring. Suv sepilmaydi, chunki alanga hajmi kengayib ketadi.
13. Kislota ta’sirida kuygan joy avvalo mo‘l miqdordagi suv bilan, so‘ngra suyultirilgan natriy bikarbonat eritmasi bilan yuviladi.
14. Agar biror yeringiz yong’in yoki issiqlik ta’sirida kuyib qolsa, kuygan joyingizni kaliv permanganatning suyultirilgan eritmasi bilan yuvish yoki streptotsid emulsiyasi surtish lozim.
15. Zaharli gazlar (xlor, brom, vodorod sulfid, oltingugurt yoki azot oksidlari) bilan zaharlanib qolgan kishini darhol ochiq havoga olib chiqish va tibbiyot xodimiga murojaat qilish lozim.
16. Ishqorlar ta’sirida zararlangan joyni avval qayta-qayta suv bilan, so‘ngra esa sirka yoki limon kislotasining suyultirilgan eritmasi (3%) bilan yuvish lozim.
17. Ishqor, kislota va yonuvchan suyuqliklarni rakovinaga to‘kish yaramaydi. Bunday keraksiz suyuqliklarni maxsus idishlarga quyish kerak. Rakovinaga qum, qog‘oz va shunga o‘xhash narsalarni tashlamang.
18. Simob va simobli asboblар bilan ehtiyyot bo‘lib ishlang. Simobli asbob (termometr va manometr) sinsa, uni tezda maxsus usul bilan yig‘ib oling va suvli stakanga solib, simob to‘kilgan joyga oltingugurt kukuni sepib uni zararsizlantiring.
19. Gazlar bilan ishlashda juda ehtiyyot bo‘lish kerak, gazlar tozaligini tekshirib va asbob germetikligini aniqlab, so‘ngra ish boshlash lozim.
20. Reaktiv olish uchun ishlatiladigan qoshiqcha va menzurkani aralashtirilib yubormaslik kerak.
21. Mashg‘ulot tugagach, ishlatilgan moddalarni o‘z joyiga qo‘yish, asboblarni va shisha idishlarni tozalab yuvib, laborantga topshirish kerak.
22. Laboratoriyanadan ketishdan oldin gaz, vodoprovod jo‘mraklarini berkitilganligini, elektr asboblarning o‘chirilganligini tekshirib ko‘ring.

ORGANIK SINTEZ LABORATORIYASIDA QO’LLANILADIGAN JIXOZLAR VA QURILMALAR

Organik kimyo laboratoriyasida ko‘pchilik moddalarni olishda oson uchuvchi va tez alanganuvchi (masalan, efirlar, spirtlar, uglerodsulfid va boshqalar), shuningdek zaharli (sianid birikmalari, piridin, brom, sulema va boshqalar) va portlovchi moddalar bilan ishlashga to‘gri keladi. Tartibsizlik, beparvolik va shoshma-shosharlik bilan ishlash natijasida tajriba noto‘g’ri bajarilishi va laboratoriya ko‘ngilsiz xodisalar ro‘y berishi mumkin.Buni oldini olish maqsadida quyidagi qoidalarga rioya qilish shart:

1. Har bir ishni boshlashdan oldidan idish va asboblarni ko'zdan kechirish zarur. Ularning to'g'ri yig'ilganligiga va tayyorlangan reaktivlarning miqdori to'g'rilingiga qanoat hosil qilingandan keyin rahbarning ruxsati bilan ishni boshlash kerak. Ish texnikasiga tushunmasdan turib tajribani boshlash mumkin emas.

2. Reaksiya uchun ishlatiladigan moddalalarning xossalari(qaynash va suyuqlanish harorati, yonuvchanligi, zaharliligi, va boshqa xossalari) bilish zarur.

3. Oson yonuvchan va tez alanganuvchi suyuqliklar (efir, benzol, toluol, benzin, spirt, atseton va boshqalar) bilan ishlashda juda ehtiyoj bo'lish kerak. Ularni ish stolida ko'p miqdorda saqlash mumkin emas.

4. Zaharli va o'tkir xidli moddalar bilan olib boriladigan ishlar morili shkafda bajariladi.Ularni qo'l bilan ushslash, xidlash va tatib ko'rish mumkin emas, aks holda kishi zaharlanishi mumkin.

5. Ishlatilgan simobni to'kib yubormaslik kerak, chunki uning bug'i havoni zaxarlaydi. Simob bilan qilinadigan ishlar maxsus tunuka idish ustida olib borilishi lozim; to'kilgan simobni maxsus asbob bilan tozalab terib olish, qolganining ustiga esa oltingugurtsepib qo'yish zarur.

6. Natriy metalini suvdan ehtiyoj qilish, qog'oz ustida kesish va qoldiqlarini har xil idishga tashlamay, kerosinli idishda saqlash kerak. Natriyni mayda qoldiqlarini spirtga oz-ozdan solib, eritib yuborish zarur.

7. Kontsentrlangan sulfat kislotani suyultirish uchun suvni kislotaga emas, balki kislotani suvga oz-ozdan idish devori orqali ko'yib chayqatib turish kerak, aks xoda kislota sachrashi, idish esa sinib ketishi mumkin.

8. Brom, xlor, vodorod sulfid, sulfit angidrid va boshka zaharli moddalar bilan ishlayotganda ularni xidlamaslik xamda ulardan ko'zni extiyot kilish kerak. Brom bilan juda extiyot bo'lib ishlash lozim, chunki u terini juda tez va qattiq kuydiradi.

9. Zaharli va o'yuvchi moddalar maydalananayotganda ko'zoynak taqib olish va rezina qo'lqop kiyish kerak; ish joyini yaxshilab tozalash va qo'lni sovun bilan yuvish zarur.

Organik sintez laboratoriyalarda odatda shisha idishlar ko'p ishlatiladi. Probirkalar, stakanlar, yumaloq va yassi tubli kolbalar, sovitgichlar, aralashtirgichlar va h.k. Shishadan yasalgan idishlar kimyoviy reagentlarva issiqlik ta'siriga chidamli bo'lib, tiniq, oson yuviladi va ularni termik qayta ishlash mumkin. Laboratoriya qurilmalari ularda boradigan reaksiya muhitiga, reaksiya uchun olinadigan va reaksiya natijasida hosil bo'ladigan moddalarning xossalariiga mos qilib tuziladi. Hamma holatlarda ham asboblar shtativ qisqichlariga mahkam o'rnatiladi. Asbobning qismlari bir-biri bilan rezina tiqin yoki elastik naylar, shuningdek standart (normal) shliflar orqali ulanadi.

Asboblarni yig'ishda ulanayotgan joy qiyshiq yoki ortiqcha tarang (qattiq) bo'lmasligiga etibor berish kerak.


Tiqinlar. Shisha asboblarining qismlarini bir-biriga birlashtirish va idishlarni zinch qilib berkitish uchun rezina tiqinlardan foydalaniladi. Tiqinlar asbobning teshigi o'lchamiga va asbobda qanday modda saqlanishiga qarab tanlanadi. Tiqin aylanma harakat yordamida idishning tegishli teshigiga kiritiladi. Kerak bo'lganda tiqinlar mahsus metall parmallar bilan teshiladi. Buning uchun parmaning diametri teshikka o'mnatilishi lozim bo'lgan nay diametridan biroz kichik bo'lishi zarur. Rezina tiqinni teshishdan avval parmaning uchiga glitserin surtilsa, parmalash osonlashadi. Tiqinlar ma'lum standart o'lchamlarga ega. Keyingi vaqtida standart konussimon shliflar chiqarilayotganligi sababli qisqa vaqt ichida ancha murakkab laboratoriya qurilmalarini tezda yig'ish mumkin bo'lmoqda.

Kolbalar. Tajriba qilish uchun suyuqliklarni saqlash, haydalayotgan moddalarni yig'ish va eritmalar tayyorlash uchun tubi yassi, o'zi esa konussimon yoki yumaloq kolbalar ishlatiladi (1-pacm). Ular, ya'ni tubi yassi kolbalar vakumda haydash hamda yuqori tempuraturagacha qizdirish ishlarida ishlatilmaydi. Bu hil maqsadlarda yumaloq tubli kolbalar ishlatiladi. Yumaloq tubli kolbalar har xil: keng va tor bo'g'inli, uzun va kalta bo'yinli, bir, ikki va to'rt og'izli bo'ladi. Yon naychali (Vyurs kolbasi), deflegmatorli (Favorskiy kolbasi), nasadkali (Klyayzen kolbasi) va shunga o'hshash yumaloq tubli kolbalar suyuqliklarni haydashning turli hollarida ishlatiladi.


Bunzen kolbasi vakum yordamida suyuqliklarni so'rib, kristall moddalarni tozalash uchun ishlatiladi. Suyuqliklarni reaksiyon aralashmaga oz-ozdan qo'shish yoki tomizish uchun turli tomizgich voronkalar ishlatiladi. Ulardan, shuningdek o'zaro aralashmaydigan suyuqliklarni bir-biridan ajratish, moddalarni ekstraksiyalar qilish kabi jarayonlarda ham foydalaniladi.

Qaynash temperaturasi bir-biridan oz farq qiladigan suyuqliklarni haydashda, ularni to'la ajratish uchun deflegmatorlardan foydalaniladi. Deflegmatorlardan foydalanish suyuqliklarni qayta-qayta haydab tozalashni kamaytiradi. Deflegmatorlarning hizmati bir bo'lsa ham, ular bir-biridan ichidagi nay shakli va sirtqi yuzasining har hil usullar bilan kengaytirilganligi bilan farq qiladi.

Sovutgichlar. Organik reaksiyalar asosan aralashmani qizdirish orqali, ya'ni ko'pincha moddalarning qaynash temperaturasida amalga oshiriladi. Aralashmadagi komponentlar bug'lanib ketmasligi uchun reaksiyon aralashma solingen kolba og'ziga qaytarmasovutgich ulanadi (2-rasm). Unda bug' sovib, kondensiyalanadi va reaksiyon aralashmaga qaytib tushadi. Sovutgichlarning eng oddiysi havo sovutgichi bo'lib, u oddiy uzun shisha naydan yasaladi.



1-rasm. а) yumaloq tubli, б) yassi tubli, в) 2 yoki 3bo'g'izli,
г) konussimon kolba (Erlenmeyr kolbasi), д) Keldal kolbasi,
е) noksimon kolba, ж) о'tkir tubli kolba, з) Vyrs kolbasi (haydash
kolbasi), и) о'tkir tubli (haydash uchun) Klayzen kolbasi, к) Favorskiy
kolbasi, л) Buzen kolbasi.



2-rasm.Sovutgichlar: а - havo sovitgichi, б - Libih sovitgichi, в - sharsimon
qaytar sovitgich, г - ichki nayi spiralsimon sovitgich, д - Dimrot sovitgichi,
сuv yo'li spiralsimon sovitgich, е - deflegmator


Bunday sovutgichlar qaynash temperaturasi 150°C dan yuqori bo'lgan birikmalar bug'ini suyuqlikka aylantirish uchun ishlatiladi. Qaynash temperaturasi 150°C dan past bo'lgan moddalarning bug'larini suyuqlikka aylantirish uchun suv bilan sovitiladigan turli hil shakldagi qaytarma sovitgichlardan foydalaniladi. Bularga Libih sovitgichi, sharsimon sovitgich, ichki sovitgich nayi spiralsimon, sovitgichi to'g'ri, o'zi esa spiralsimon va sanab o'tilgan sovitgichlarning tuzilishini o'zida mujassamlashtirgan yanada samarali sovitgichlar kiradi.

Qaytar sovitgichdagi suv oqimi sovitgichning ulanadigan qismidan yuqoriga ko'tarilgan, ya'ni kondensatga qarshi bo'lishi kerak.

To'g'ri sovitgichlar aralashmalarni bir-biridan ajratish, erituvchilarni haydash, moddalarni haydash bilan tozalash kabi maqsadlarda qo'llaniladi. Eng ko'p ishlatiladigan to'g'ri sovitgich Libih sovitgichidir. Sovitgichlar bilan laboratoriya qurilmalarini yig'ishda shtativdagi temir qisqichlarda elastik qistirmalar bo'lishi lozim. Qurilmalarini shtativlarga o'rnatishda juda ehtiyoj bo'lish shart. Aralashtirgichlar, deflegmatorlar va boshqa shisha asboblar qat'iy vertikal holatda o'rnatilishi kerak.

Tomizgich va ajratkich voronkalar Laboratoriyalarda ma'lum sintezlarni olib borishda reaktsiyaga kirishuvchi modda yoki aralashmaga suyuqliklarni asta-sekin quyishga to'g'ri keladi, bunday hollarda tomizg'ich voronkalaridan foydalaniladi.

Ajratkich voronkalar bir-biri bilan aralashmaydigan ikki xil suyuqliklarni ajratishda va moddalarni suvli eritmalardan suv bilan aralashmaydigan organik erituvchilar, masalan, petroleyn efir, benzol, xloroform, dietil efir, etilatsetat va boshqalar yordamida ajratib, ya'ni ekstraksiyaqilib olishda ishlatiladi.



3-rasm. Voronkalar: a) oddiy voronka, b) Shotta voronkasi, c) ajratish voronkasi, d) tomizgich voronkasi

Ajratkich voronkalarning formalari har xil va turli katta-kichiklikda bo'ladi. Ko'p ishlarda quyish naychasi kaltaroq bo'lgan ajratkich voronka ishlatiladi.


Ajratkich voronka bilan ishlashdan oldin uning jo'mragini ishlashini tekshirib ko'rish va jo'mrak tushib ketmasligi uchun rezina halka yordamida voronkaga biriktirib qo'yish kerak.

Laboratoriya voronkalaridan suyuqliklarni bo'g'zi tor idishlarga quyish, filtrlash uchun foydalaniladi.


Ajratish voronkalari aralashmaydigan suyuqliklarni ajratib olish, ekstraktsiyada ishlatiladi.

Tomizgich voronkalardan sintezda davomida suyuqliklarni tomizish uchun foydalaniladi.

Eksikatorlar. Eksikatorlar gigroskopik moddalarni saqlash va quritish uchun ishlatiladi (4-rasm). Issiqlik bilan bog'liq bo'lgan ba'zi laboratoriya ishlarida farfor idishlar: stakanlar, kosachalar, tigellar ishlatiladi (5-rasm).



4-rasm. Eksikatorlar: a) vakumli eksikator, b) oddiyeksikator



5-rasm. Farforidishlar:

a) kosacha, b) Byuxnervoronkasi; v) tigel, g) havoncha, d) qoshiq, e) stakan, j) qayiqcha, z) shpatel

**LABORATORIYA ISHLARINI OLIB
BORISHDAQO'LLARNILADIGANYORDAMCHIJIXOZL
ARVAQURILMALAR**

	Texnik tarozi – moddalar og’irligini o’lchash uchun foydalilanadi, verguldan keyin ikkita songacha ham aniq ko’rsatadi.
	Magnitli aralashtirishgich- suyuq moddalarni doimiy aralashtirishda foydalilanadi
	Suv hammomi- 100°C dan yuqori haroratgacha qizdiradi
	Avtotransformator -moddalarni sintez qilishda elektor tokini bir hil hajimda uzatib beradi

	<p>Distillyator distillangan suv olish uchun qo'llaniladi va turli laboratoriyalarda, tibbiyot korxonalarida va boshqa soxalarda ishlataladi. Distillyator Davlat farmakopeyaning FS 42-2619-97 XI moddasiga to'g'ri keladigan distillab, tozalangan suvni ishlab chiqaradi. Ushbu distillyato yuqori to'yingan eritmalar tayyorlash uchun kerak bo'ladi dan tozalangan sovuq va issiq (+80°C) suv tayyorlay oladi.</p>
	<p>Analitik tarozi ko'p funksiyali elektron tarozi bo'lib, ilm va texnikaning turli soxalarida qo'llaniladi. Tarozi mikroprotsessor bilan jixozlangan. Ishlash tamoyili elektro-magnit kompensatsiyaga asoslangan. Havodan asraydigan eshikchalari maksimal darajada muammosiz ochiladi, o'lchanadigan moddalarni qulay qo'yib olishga moslashtirilgan. Bunday tarozilar laboratoriya xonalarida maxsus stollarga o'rnatiladi.</p>
	<p>Suyuqlanish haroratini aniqlash jixozi - unda 400 °C haroratgacha moddalarning suyuqlanish va qaynash haroratini tez aniqaniqlash mumkin.</p>
	<p>Rotatsion bug'lantirgich –past bosimda suyuqlikni xaydash yo'li bilan yo'qotish uchun mo'ljallangan. Rotatsion bug'lantirgich isitish hammomini yoqish uchun alohida tugmacha, masofadan boshqarish paneli bilan jixozlangan va bug'lantirgichni yopiq tortish shkafida qulay nazorat qilish mumkin. Kimyoviy laboratoriyalarda erituvchilarni aralash birikmalardan bug'lash, hamda suyuqliklarni ajratishda keng qo'llaniladi.</p>

	Termometr- moddalarni sintez qilishda qaynash haroratini ko'rsatadi
	Lapkalar- moddalarni sintez qilishda turli idishlarni ushlash uchun ishlataladi
	Qisqich- lapkalarni shtativga mahkamlash uchun foydalilaniladi
	Tigellarni ushlash uchun, issiq holdadi idishlarni olishda foydalilaniladi
	Shtativ- moddalarni sintez qilishda kolbalarni, chinni kosacha va boshqa idishlarni mahkamlash uchun foydalilaniladi
	Skalpel- kimyoviy qattik moddalarni kesish uchun ishlataladi

ORGANIK MODDALARNI AJRATISH, TOZALASH VA TUZILISHINI ANIQLASHNING AYRIM USULLARI

Biror modda sintez qilinayotganda reaktsion aralashmada asosiy mahsulotlardan tashqari qo'shimcha moddalar (dastlabki moddalarning reaktsiyaga kirishmay qolgan qismi, reaktsiya uchun ishlatalgan erituvchi, reaktsiyada hosil bo'ladigan oraliq va qo'shimcha mahsulotlar) ham birgalikda bo'ladi. Shuning uchun olinayotgan xar qanday organik moddani tekshirishdan oldin uni aralashmalardan ajratish, yaxshilab tozalash zarur.

Reaktsiya maxsulotlaridan toza organik birikmalarni ajratib olish va tozalashda filtrlash, qayta kristallantirish, sublimatlash, qaynash temperaturasiga qarab haydash, ekstraktsiya va xromatografiya usullaridan foydalaniladi.

Moddalarning fizikaviy konstantalarini aniqlash. Xar qaysi organik modda o'ziga xos ba'zi fizikaviy xossalarga ega. Ularning suyuqlanish hamda qaynash temperaturasi, nur sindirish ko`rsatkichi va zichligi oson aniqlanadi. Moddalarning bu xossalari ularning konstantasi bo`lib, toza ekanligini ko`rsatuvchi dalil bo`la oladi. Qayta tozalanganda ham konstantasi o`zgarmaydigan moddalarni toza deb hisoblash mumkin.


Qayta kristallantirish. Qayta kristallantirish - qattiq moddalarni tozalashning muhim usulidir. Buning uchun boshqa qo'shimchalar bilan ifloslangan moddani qizdirganda eriydigan erituvchidan to`yingan eritmasi tayyorlanib, eritmani isitganda filtrlab, erimaydigan qo'shimchalardan ajratiladi. Natijada moddaning toza kristallari cho`kmasi hosil bo'ladi, so`ngra u filtranadi va quritiladi.

Qayta kristallantirishga erituvchi tanlash:

1. Erituvchi erigan moddalar bilan kimyoviy ta'sirlashmasligi kerak.
2. Modda tanlangan erituvchida sovitilganda yomon eriydigan, qizdirganda esa yaxshi eriydigan bo`lishi kerak. Moddaga aralashgan qo'shimchalar esa erituvchida yana ham yaxshi erishi kerak.

Noma'lum moddani qayta kristallantirish uchun, dastlab oz miqdor modda bilan probirkada erituvchi tanlash kerak. Erituvchi tanlashda erituvchiga moddaning sinfi, tuzilishi hamda kimyoviy yaqinligi muhimdir, chunki modda shunday erituvchilarda qayta kristallanadi.

Sublimasiya. Ba'zi qattiq moddalar qizdirilgan, suyuqlanmasidan to'g'ridan –to'g'ri bug'ga, bug'lar esa suyuqlanmasdan qattiq moddaga aylanishi mumkin bo'lgan jarayonga sublimasiyadeyiladi. Qizdirilganda bug'larning bosimi katta bo'lgan qattiq moddalar sublimatlanadi, yana bu moddalar qizdirilganda suyuq fazaga o'tmay, bug'ga aylanadi (7-rasm). Moddaning bug'lari sovutilganda suyuq holga aylanmay, qattiq holga o'tadi. Sublimatlanish molekulyar kristall panjarali qattiq moddalarga xos. Kristallanishu usul bilan tozalanishi qiyin bo'lgan moddalarni shu usul bilan ajratib



olinadi va tozalanadi. Bu usulning afzalligi, qiyin va uzoq davom etadigan kristallantirish o'rniga tez, bir marta amalga oshiriladi, moddaning miqdori kristallanish usuliga qaraganda ko'proq bo'ladi. Kamchiligi – bu usulni barcha qattiq moddalar uchun qo'llab bo'lmaydi, chunki hamma moddalar sublimatlanish xossasiga ega emas. Shuning uchun bu usulni qo'llash sohasi cheklangandir.


7-rasm. Sublimatlanish asbobi

Suyuq birkmalarni ajratish va tozalash. Organik sintezda suyuq organik moddalarni tozalash va ajratib olishda haydash usuli ko'p qo'llaniladi. Bu usulda moddalar qaytarilib, bug' holiga keltiriladi, so'ngra bug'lar sovitgich orqali o'tkazilib suyuqlikka aylantiriladi. Sharoitga qarab uch hil haydash usulidan foydalanish mumkin: 1) atmosfera bosimida haydash; 3) vakuumda haydash; 3) suv bug'i bilan haydash.

Qaynash tempuraturasi bir-biridan ancha farq qiladigan suyuqliklarni toza holda ajratish uchun oddiy haydash - atmosfera bosimida haydash usulidan foydalaniladi. Bu usul mohiyati shundaki, suyuqlik qaynash haroratigacha qizdiriladi va uning bug'lari sovitqichda kondensatlanib, distillyat hosil qiladi. Oddiy haydash usuli qaynash harorati 400^0 dan 1800^0 gacha bo'lgan suyuqliklar uchun qo'llaniladi. Yuqori haroratda ko'pgina organik suyuqliklar qisman parchalangani uchun bu usuldan ular uchun foydalanib bo'lmaydi. Oddiy haydash o'z navbatida ikkiga bo'linadi: 1) oddiy haydash 2) fraktsiyalab haydash.

Oddiy haydash usuli a) suyuqliklar aralashmasini ajratish uchun, b) suyuqliknini unda erigan qattiq moddadan ajratib olish, v) to'yingan eritma hosil qilish, g) suyuqlik miqdorini kamaytirish uchun, d) suyuqliknинг qaynash haroratini ma'lum bir atmosfera bosimida aniqlash uchun qo'llaniladi. Suyuqliklarni tozaliginia niqlash, ularni identifikatsiyalash uchun ham haydash usulidan foydalaniladi. Toza moddalar 1-2 0 oraliqda haydaladi. Bu ularning haqiqiy ekanligini isbotlaydi.


Oddiy haydash usulini amalga oshirish uchun quyidagi asboblar: haydash kolbasi, sovitgich, allonj, termometr, yig'gich kolbalar ishlataladi, bundan tashqari issiqlik manbai: gaz gorekasi yoki elektr isitgichlar bo'lishi shart (8-rasm).



8-rasm. Suyuqliklarnioddiyhaydashuchunishlatiladiganasbob:

1) Bunzengorelkasi, 2) zajimasbestqog'ozibilan, 3) haydashkolbasi (Vyurtskolbasi), 4) lapka, 5) termometr, 6) shtativlar, 7) Libixsovitkichi, 8) allonj, 9) yig'gichkolba

Fraksiyalarga bo`lib haydash. Aralashmani haydab turli haroratda qaynaydigan suyuqliklarni ayrim - ayrim idishlarga yig'ib olish usuli fraksiyalı haydash usuli deb ataladi. Qayta fraksiyalab haydash yo`li bilan aralashma tarkibiy qismlarga ajratiladi. Aralashma holda bo`lgan suyuqliklarni bir necha fraksiyalarga ajratishda, hamda fraksiyalarni qaytadan kondensatlashda deflegmator, deflegmatorli kolbalardan va rektifikatsion kolonkalardan foydalaniladi (9 - rasm).



9-pasm. Suyuqliklarnifraksiyalargabo 'libhaydashuchunishlatiladiganasbob:


1) haydashkolbasi, 2) deflegmator, 3) termometr, 4) sovitqich, 5) allonj, 6) yig'gichkolba.

Suv bug'i bilan haydash. Reaksiya mahsulotlari tarkibida quruq va qatron qo'shimchalar bo'lsa, birikma parchalanish yoki qatronlanish hususiyatiga ega bo'lsa, bunday moddalar ko'pincha bug' bilan haydab tozalanadi. Ular suvda deyarli erimaydigan va suv bilan reaksiyaga kirishmaydigan bo'lishi kerak.

Laboratoriyyada va kimyo sanoatida organik moddalarni tozalash va murrakkab tarkibli aralashmalarni ayrim komponentlarga ajratishda keng qo'llaniladigan usullardan yana biri — suv bug'i bilan haydashdir, bu usulning mohiyati qaynash tempururasigacha qizdirilganda parchalanadigan, suv bilan aralashmaydigan yoki kam aralashadigan moddani undan suv bug'i yuborilganda, uchuvchan holatga o'tishiga, hamda sovitgichda suv bug'i bilan kondenslashuviga asoslangan. Suv bug'i bilan haydash asbobi bug' hosil qiluvchi idish, bug' o'tuvchi nay, uzun bo'yinli haydov kolbasi, sovitgich, alonj va yig'gich idishdan iborat (10-rasm).

Tozalanishi lozim bo'lgan modda ozgina suv bilan haydov kolbasiga uning 1/3 hajmi qadar solinadi. Haydov kolbasi ikki bo'g'izli bug' hosil qiluvchi kolbaga ulanadi. Suv qaynaganda bug' haydov kolbasiga yo'naladi. Suv bug'i bu erda kam kondensatlanishi uchun haydov kolbasiga yo'naladi.

Suv bug'i bu erda kam kondensatlanishi uchun haydov kolbasi qizdirilib turiladi.



10-rasm. Suyuqliklarni suv bug'i bilan haydash uchun ishlataladigan asbob:
1) suv bug'i hosil qiluvchi kolba, 2) haydash kolbasi, 3) sovitkich 4) allonj, 5) yig'gich kolba


Haydash distillyyatidan olingan ozgina (1–2 ml) namuna sovitilganda tiniq va bir hil bo'lguncha davom ettiriladi. Haydashni to'htatish uchun avval bug' hosil qiluvchi idishni qizdirish to'hatilib, unga tashqaridan havo kirish imkoniyati yaratiladi. So'ngra qabul idishida yig'ilgan distillyyat ajratgich

voronkada suvdan ajratiladi. Suv hajmidan quritilish uchun haydalayotgan birikma toblangan kalsiy xlorid bilan quritiladi va zarur bo'lsa haydaladi.

Ekstraksiya. Moddalarni bir fazadan boshqa fazaga etituvchilar yordamida o'tkazish jarayoniga ekstraksiya deb ataladi. Bu jarayon moddalarning bir-birida aralashmaydigan ikki hil suyuqlikdagi eruvchanligining har hil bo'lishiga asoslangan. Ikki turdagи ekstraksiya mavjud; qattiq moddalar ekstraksiyasi va suyuqliklar ekstraksiyasi.

Ekstraksiya olinayotgan modda va aralashmalarning xar xil erituvchilarda turlicha erishiga asoslangandir. Suvda erigan organik moddalarni suv bilan aralashmaydigan erituvchilar: dietil efir, benzol, petroleyn efir, xloroform va boshqalardan birida yaxshi erishini e'tiborga olib, suvli eritma aralashmasidan organik moddani ajratib olish mumkin. Bunda ishlatalayotgan erituvchilarning qaynash harorati ancha past bo`lganligi uchun ular osonlikcha haydab olinadi.

Agar qattiq modda erituvchi bilan qaytar sovitgichli kolbada qizdirilsa va keyin eritma issiq holda filtrlansa, kerakli modda erituvchiga o'tadi. Ammo bir marta ekstraksiya qilish bilan moddani to'liq ajratib bo'lmaydi. Moddani to'la ajratib olish uchun ekstraksiya bir necha marta takrorlanishi kerak (11- rasm).




11-rasm. Sokslet ekstraktori (A), ajratish voronkasi (B)


1-Laboratoriya ishi uchun mustaqil bajarish vazifalar

1. Laboratoriya daftarga kimylaboratoriya xonasida ishlashda texnika xavfsizligi qoidalari bayonini yozing.
2. Sintezda qo'llaniladigan jihozlar va qurilmalarining rasmini chizing.
3. Diflegmatorli haydash va qayta kristallash moslamalarining rasmini chizing.
4. Pedagogik texnologiya usuli «Zina poya» sxemasi bo'yicha atseton, etil va izopropil spirti, dietil efiri, sirka kislotaning butil efiri, benzol, toluol va

xloroformlarning qaynash harorati ko`rsatgichlarini oshib borish tartibida joylashtiring.



1. Suyuqliklarni oddiy haydash uchun ishlataladigan asbobdagi mos raqamlarni yozing.



<i>Idish nomlari</i>	<i>Raqamlar</i>
<i>Haydash kolbasi (Vyrs kolbasi)</i>	
<i>Bynzer voronkasi</i>	
<i>lapka</i>	
<i>Zajim asbes qog'oz bilan shtativlari</i>	
<i>termometr</i>	
<i>Yig'gich kolba</i>	
<i>Libih sovitkichi</i>	
<i>alonj</i>	

2. Kimyoviy idishlarni hususiyatini aniqlang.


1	tiqin	a	Tjriba qilish uchun suyuqliklarni saqlash, haydalayotgan moddalarni yig'ish va eritmalar tayyorlash uchun tubi yassi, o'zi esakonussimon yoki yumoliq ishlataladi.
2	kolba	б	Aralashmadagi komponentlar bug'lanib ketmasligi uchun reaksiyonar alashma solingan

			kolba og'ziga qaytarma ulanadi	
3	eksikator	v	Shisha asbobning qismlari bir-biriga birlashtirish va idishlarni zich qilib berkitish uchun rezinadan foydalilaniladi	
4	sovitgich	g	Gigraskopik moddalarni saqlash va quritish uchunishlatiladi	
javob	1-	2-	3-	4-

3.Organik moddalarni tozalash usullarini aniqlang.

1	sublimatsiya	a	Moddalarni bir fazadan boshqa fazaga erituvchilar yordamida o'tkazish jarayoniga deb ataladi	
2	ekstraksiya	b	Qaynash temperaturasi bir-biridan ancha farqqiladigan suyuqliklarni toza xolda ajlalish uchun oddiy xaydash usulidan foydalilaniladi	
3	Qayta kristallah	v	Bazi qattiq moddalar qizdirilganda, suyuqlanmasidan to'g'ridan to'g'ri bug'ga, bug'lar esa suyuqlanmasdan qattiq moddaga aylanishi mumkin bo'lган jarayonga.....deyiladi	
4	Atmosfera bosimida haydash	gda qo'shimchalar bilan ifloslangan moddani qizdirilganda eriydigan erituvchidan to'yingan eritmasi tayyorlanib, eritmani isitganda filtrlab, erimaydigan qo'shimchalardan ajratiladi.	
javobi	1-	2-	3-	4-


4.Kimyoiy laboratoriyada ishlatiladigan sovutgichlarni nomini aniqlang. a - deflegmator, б -ichki nayi spiralsimon sovitgich, в -Dimtor sovitgichi, suv yo'li spiralsimon sovitgich, г -Libix sovitgichi, д - sharsimon qaytar sovitgich, е - havo sovitgichi



Javobi

a	б	в	г	д	Е
---	---	---	---	---	---


5. Suyuqliklarni suv bug'i bilan haydash uchun ishlatiladigan asboblarni mos raqamini yozing



Javobi

<i>Idish nomi</i>	<i>raqamlar</i>
Xaydash kolbasi	
alonj	
Yig'gich kolba	
sovitgich	
Suv bug'i hosil qiluvchi kolba	

6. Suyuqliklarni fraktsiyalarda bo'lib haydash uchun ishlatiladigan asbobdagi mos raqamlarni yozing



Javobi:

<i>Idish nomi</i>	<i>raqamlar</i>
Xaydash kolbasi	
deflegmator	
Yig'gich kolba	
termometr	
alonj	
sovitgich	

I-

Laboratoriya ishi nazorat Testlari.

1.Kimyo laboratoriya honasida ruhsat beriladi:

- a) kofe ichish mumkin;
- b) krandan suv ichish mumkin;
- v)o'qituvchining topshiriqlarini bajarish;
- g)ustki kiyimlarni deraza tokchasiga qo'yish;

2. Konsentrangan kislotalar bilan ishlash mumkin:

- a)koridorda;
- b)mahsus havo tortish shkafida;
- v) laboratoriya stolida;
- g)hovlida;

3. Konsentrangan kislotalarni suyultirishda:

- a)konsentrangan kislotaga suv qo'shiladi;
- b) suvgaga konsentrangan kislota qo'shiladi;
- v) ishqorga konsentrangan kislota qo'shiladi;
- g) benzolga konsentrangan kislota qo'shiladi;

4.Kimyoviy idishlarda tajriba o'tkazish uchun qizdirish mumkin;

- a)qalin shishali idishlarda;
- b) yupqa shishali idishlada;
- v) mahsus emblemasi bo'lgan idishlarda;
- g) dars ketgan idishlarda;

5.Shisha asboblarining qismlarini bir-biriga birlashtirish va idishlarni zinch qilib berkitish uchun rezinadan foydalaniladi.

- a)tiqin
- b) kolba
- v) alonj
- g) deflegmator

6.da qo'shimchalar bilan ifloslangan moddani qizdirganda eriydigan erituvchidan to'yingan eritmasi tayyorlanib, eritmani isitganda filtrlab, erimaydigan qo'shimchalardan ajratiladi.

- a)ekstraksiya
- b) sublimasiya
- v) atmosfera bosimida haydash
- g) qayta kristallsh

7.Qaynash tempuraturasi bir-biridan ancha farq qiladigan suyuqliklarni toza holda ajratish uchun usulidan foydalaniladi.

- a)atmosfera bosimida haydash
- b) qayta kristallsh
- v) ekstraksiya
- g) sublimasiya

8.Organik sintez jarayonida- aralashmanlari turli haroratda qaynaydigan suyukliklarni ayrim - ayrim idishlarga yig'ib olish.....deb ataladi.

- a)ajratib olish usuli
- b) fraksiyali haydash usuli
- v) suv bug'i bilan haydash
- g) atmosfera bosimida haydash

9.Kimyo sanoatida organik moddalarni tozalash va murrakkab tarkibli aralashmalarni ayrim komponentlarga ajratishda keng qo'llaniladigan usullardan biri —.....

- a)fraktsiyalab haydash
- b) atmosfera bosimida haydash
- v) bosim ostida haydash
- g) suv bug'i bilan haydash

10.Qaynash tempuraturasi bir-biridan ancha farq qiladigan suyuqliklarni toza holda ajratish uchun oddiy haydash usulidan foydalaniladi. Oddiy haydash usuli necha turga bo'linadi va qanday ataladi?

- a)2 turga- oddiy haydash ; fraktsiyalab haydash;
- b) 3 turga- oddiy haydash ; fraktsiyalab haydash; atmosfera bosimida haydash;
- v) 2 turga- oddiy haydash ;atmosfera bosimida haydash ;
- g) 3 turga- oddiy haydash ; fraktsiyalab haydash; bosim ostida haydash;

11.Gigraskopik moddalarni saqlash va quritish uchunishlatiladi

- a)tiqin
- b) sovitgich
- v) eksikator
- g) kolba

12.Aralashmadagi komponentlar bug'lanib ketmasligi uchun reaksionar arashma solingan kolba og'ziga qaytarmaulanadi

- a)tiqin
- b) sovitgich
- v) eksikator
- g) kolba

13.Moddalarni bir fazadan boshqa fazaga etituvchilar yordamida o'tkazish jarayoniga deb ataladi.

- a)sublimasiya
- b) atmosfera bosimida haydash
- v) suv bug'i bilan haydash
- g) ekstraksiya

14.Ba'zi qattiq moddalar qizdirilgan, suyuqlanmasidan to'g'ridan –to'g'ri bug'ga, bug'lar esa suyuqlanmasdan qattiq moddaga aylanishi mumkin bo'lgan jarayonga.....deyiladi.

- a) sublimasiya
- b) ekstraksiya
- v) atmosfera bosimida haydash;
- g) suv bug'i bilan haydash;

15.Organik sintezda suyuq organik moddalarni tozalash va ajratib olishda haydash usuli nech turga bo'linadi, ular qanday ataladi?

- a) 2 turga- oddiyhaydash; fraktsiyalabhaydash;
- b) 3 turga -oddiyahaydash;fraktsiyalabhaydash;atmosfera bosimida haydash;
- v) 3 turga-atmosfera bosimida haydash; vakuumda haydash; suv bug'i bilan haydash;
- g) 2 turga-atmosfera bosimida haydash; vakuumda haydash;


2-LABORATORIYA ISHI

Mavzu: ETIL BROMID SINTEZI

Darsning maqsadi.Talabalarga etil bromid sintezi misolida sintez jarayonlarini olib borish, optimal shart-sharoitlari,parametrlari va maxsulot chiqishi unumдорligi haqidagi bilimlarni shakllantirish.


Nazariy qism.Galogenalkanlar – molekulasi dagi bir yoki bir necha vodorod atomi galogen atomiga almashingan organik birikmalar to'yingan uglevodorodlar xosilalaridir.

Etilen uglevodorodlariga galoid vodorodlarni biriktirib, galogen alkillar olish eng qulay usul hisoblanadi. Bunda kerakli mahsulot yuqori unum bilan hosil bo'ladi:





Galogen alkillarni to'yingan bir atomli spirtlardagi gidroksil guruhini galogenga almashtirib olish mumkin. Bunda spirtlarga galoid vodorodlar, fosforning galogenli birikmalari yoki tionil xlorid bilan ta'sir ettiriladi:


a) galoid vodorodlar ta'siri:




b) fosforni galogenli hosilalarning ta'siri:




v) spirtlardan galogen alkillar olishda eng qulay usul ularga tionil xlorid bilan ta'sir etish hisoblanadi:





Bunda hosil bo'lgan galogen alkil juda osonlik bilan ajratib olinadi. Uchlamchi spirtlardagi gidroksil guruhi galogenga juda osonlik bilan almashinadi. Birlamchi spirtlardan galogen alkillar olishda katalizatorlar ishlataladi.(ZnCl₂, H₂SO₄, ...).

g) Ftorli galogen alkillarni yuqoridagi usullar yordamida olib bo'lmaydi. Ularni asosan uglevodorodlarni xlorli, bromli yoki yodli hosilalariga simob, kumush, kobalt, surma kabi metallarning ftoridlari bilan ta'sir etib olinadi:



Fizik va kimyoviy xossalari. Galogenalkillarning fizik xossalari gelogen atomining tabiatiga va uglevodorod radikalining tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Oddiy sharoitda metil-, etil-, pro'pil- va butilftoridlar, metil-, etilxlorid, metil bromidlar gaz, qolganlari suyuqlik, yuqori alkillari qattiq moddalardir. Ularning qaynash haroratlari ftorli galogen alkillardan yodli galogen alkillarga qarab ortib boradi. Galogen alkillar qutbli kovalent bog' hosil qilib tuzilgan.


Galogen alkillar kimyoviy jihatdan juda aktiv birikmalardir. Ular uchun asosan nukleofil almashinish jarayonlari xosdir. Bundan tashqari, ular turli organik molekulalar tarkibiga alkil radikallarini kirituvchi muhim vosita hisoblanadilar. Quyida biz shu jarayonlarga misollar keltiramiz.

1. Galogen alkillarning gidrolizi. Bu jarayon natijasida bir atomli sp'irtlar hosil bo'ladi:




Galogen alkillarning gidrolizlanish jarayonining tezligi galogen alkilning tuzilishiga, galogen atomining tabiatiga, erituvchining tabiatiga va qator omillarga bog'liq bo'lib, turli yo'nalishda sodir bo'lishi mumkin. Birlamchi galogen alkillarning gidrolizlanishi ikkinchi tartibli nukleofil almashinish mexanizmi bo'yicha sodir bo'ladi.

2. Galogen alkillarga metallar bilan quruq efir ishtirokida ta'sir etilganda metallorganik birikmalar hosil bo'ladi. Agar metall sifatida litiy ishlatsa, sof metallorganik birikma, magniy ishlatsa, aralash metallorganik birikma hosil bo'ladi



Alkilgalogenidlar suvda erimaydi, chunki ular vodorod bog'lanishlarini hosil qila olmaydi. Ular organik erituvchilarda eriydi. Ularning o'zida ham turli moddalar eriydi. Quyi molekulali alkilgalogenidlar o'ziga xos shirin sifat hidga ega.



Galogen alkanlarning tsianidlar bilan o'zaro tasiri:



Darsning ahamiyati: Talabalarga etil bromidni tibbiyat soxasidagi axamiyatini tushuntirish.

Brutto-formulasi C₂H₅Br

Reaktsiya tenglamasi



Reaktivlar

Etil spirit 30 ml (0.5 mol)


Kaliy bromid 24 g (0.2 mol)

Sulfat kislota 30 ml (0.55 mol)

Jihozlar: 250-300 ml Vyurs kolbasi, qaytar sovutgich, qum xammomi, muz xammomi, termometr, shtativ, isitgich plitasi, alonj.

Ishning tartibi:

1. 250 – 300 ml xajmli Vyurs kolbasida 30 ml etil spirit, 15 ml suv solinadi.
 2. Unga aralashtirib turilgan holda 30 ml sulfat kislota quyiladi.
 3. Reaksiyon aralashma uy temperaturasigacha sovitilgach, kolbaga chayqatilib turilgan holda maydalangan 24 g kaliy bromid solinadi.
 4. Reaksiyon aralashmali kolba uzunroq sovitkichga ulanib, alonjning ichi esa muzi bo‘lgan suvli yig‘gichga 1-1.15 sm tushirib qo‘yiladi va kolba qum xammomida qizdiriladi.
 5. Reaksiyon aralashma asbest setkasida yoki qum hammomida suv tagida yig‘ilayotgan moysimon etil bromid xaydalib bo‘lguncha qizdirib turiladi.
 6. Reaktsiya tamom bo‘lgandan so‘ng yig‘gichdagi maxsulot ajratkich voronkaga quyilib, suv tagidagi etil bromid 200 ml xajmdagi konussimon kolbaga olinadi.
 7. Kolbani tuzli muz bilan sovitib, chayqatib turilgan holda unga etil bromid tagida kislota qatlami xosil bo‘lguncha tomizgich voronka yordamida konsentrangan sulfat kislota quyiladi.
 8. Etil bromid konsentrangan sulfat kislotadan ajratkich voronka orqali ajratib olinadi. Olingan etil bromid tarkibida qisman brom bo‘lgani uchun sarg‘ish rangda bo‘ladi.
 9. Maxsulot kolbaga solinib, termometrli deflegmator bilan sovitkichga ulanadi va suvhammomida xaydaladi. Bunda yig‘gich muz bilan sovitib turilishi kerak.
 10. Etil bromid 35-40⁰S atrofida xaydala boshlaydi. Uning asasosiy qismi 38-39⁰S dagi fraksiya bo‘lak qilib olinib va tortilib, ampulaga yoki yaxshi berkitiladigan sklyankaga solinadi.
- Toza etil bromid 38⁰C da qaynaydi.
Miqdori 20 g atrofida, d²⁰₄=1,4586 n²⁰_D=1,4211



12-rasm. Etil bromid olish uskunasi.

2-Laboratoriya ishiuchun mustaqil bajarish vazifalar

1. Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayoniniyozing.
2. Sintez qurilmasining rasminichizing.
3. Sintez jarayoniuchun moddiy balans jadvalinituzing.

Kirim						Chiqim					
Nº	Dastlabki reagentlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Mas sad a	Xajm da	Nº	Olingan mahsulotlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Mas sad a	Xajm da
	Jami:						Jami:				

4. Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab toping:

$$X = G_{\text{amal}} / G_{\text{naz}} * 100\% \quad \text{yoki}$$


$$X = V_{\text{amal}} / V_{\text{naz}} * 100\%$$

5. Yo`qotishlarni xisoblab toping: $Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$

6. Etil bromid qaysi maqsadlarda foydalanishini yozing.

7. Pedagogik texnologiya usulini qo`llash.

«Moslikni toping»texnologiyasi.Etil bromid sintezi.



1-misol. Murakkab efir tarkibi to'yingan karbon kislota, to'yingan bir atomli spirtdan iborat. 34,8 g murakkab efir, 50 mldan iborat zichligi 1,2 bo'lgan 20% li ishqor bilan reaktsiyag akirishdi.

- 1) Murakkab efirni ishqor bilan reaktsiya tenglamasini yozing.
- 2) Necha mol ishqor efir bilan reaktsiyaga kirishadi?
- 3) Efirni g/mol miqdorini aniqlang.
- 4) Berilgan murakkab efir tarkibida necha atom uglerod, kislorod, vodorod buladi?
- 5) Murakkab efir formulasini aniqlang?

2-misol.

$C_8H_{18}O$ bulgan spirt degidridlanish natijasida (I) va (II) atomli ikki xil isomer spirtdan etilen uglevodorod hosil bo`ladi. Issiqlik ta'sirida oksidlanganda atseton va valerian kislota hosil bo`ladi. (I) va (II) atomli spirt struktura formulasini aniqlang. Reaktsiya tenglamasini yozing, olingan moddalarni nomlang.

2-Laboratoriya ishi uchun nazorat Testlari.

1. Vodorod xlorid bilan reaktsiyaga kirishib, etilhorid hosil qiladigan moddani aniqlang?

- a) propan
- b) etilen
- v) metilbenzol
- g) etan

2. A. Vursreaktsiyasi bo'yicha faqat butan olish uchun qaysi galoidli birikmadan foydalilaniladi?

- a) Metil xlorid
- b) dixloretan
- v) propilxlorid
- g) etil bromid

3. Tarkibi dibrompropan bo'lgan birikmaning nechta izomeri bor?

- a) 4
- b) 3

v) 2

g) 5

4. Yodetan va yodpropan aralashmasi natriy metali bilan qo'shib qizdirilganda qanday uglevodorodlar olinadi?

a)butan

b) butan, pentan, geksan

v) pentan

g) geksan

5. Alkilgalogenidlarning degidrogenlanishi qaysi qoidaga binoan boradi?

a)Karash qoidasi

b) Markovnikov qoidasi

v) Eltekov qoidasi

g) Zaytsev qoidasi

6. Sanoatda polietilen olishda, issiqhonalarda mevalarni etishtirishni tezlashtirishdaishlatiladi.

a) propilen

b) etil spirti

v) etilen

g) metilen

7.Vyurs reaktsiyasi bo'yicha n-geksan olish uchun qanday galoidli birikmadan foydalaniladi.

a)etilbromid

b) dixloretan

v) metilxlorid

g) propilxlorid

8.To'yingan uglevodorod xlorli hosilasining molekulyar massasi 237 va tarkibida 89,9% xlor bor. Xlorli hosilaning molekulyar formulasini toping.

a)geksaxlorpropan

b) geksaxloretan

v) pentaxloretan

g) geksaxlорbutan

9.Tarkibiga uglerod, vodorod, va xlor kiradigan moddaning ma'lum massasi yondirilganda 0,44 g uglerod (VI)-oksid va 0,18 g suv olindi. Shunga teng massali na'munadagi xlor qator reaktsiyalar yordamida xlorid-anionga aylantirilib, 2,86 g kumush xlorid olindi. Boshlang'ich moddaning formulasini aniqlang va uni qanday olish mumkunligini yozing.

a)dixlormetan

b) xlormetan

v) xloretan

g) dixloretan

10.Xlorbenzol bilan xloretan Vyuris Fitteg reaktsiyasi natijasida qanday birikma hosil bo'ladi

- a)ksilol
- b) etilbenzol
- v) stirol
- g) toluol

11. tibbiyotda mahalliy tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi, turli materiallarni, metallarni ham elimlash hossasiga ega.

- a)etilen
- b) etilxlorid
- v) etan
- g) etanol

12.Metilyodibilanetilyodaralashmasiganatriy metali ta'sir ettirilgandanecha hil alkan hosil bo'ladi?

- a)1 hil;
- b) 2 hil;
- v) 3 hil;
- g) 4 hil;

13. 1,2-dibrometanga 50-60⁰C da ishqorning spirtli eritmasi bilan sintez qilinganda qanday birikma hosil bo'ladi?

- a)vinilbromid;
- b) bromsirka kislota;
- v) izobutilbromid;
- g) brometan;

14. Uglevodorodning xlorli hosilasini vodorodga nisbatan zichligi 49 ga teng. Uning tarkibida 24,24% C, 4,04% H ba 71,72% Cl borligi sintez orqali aniqlandi. Uglevodorodning galloidli hosilasini molekulyar formulasini aniqlang?

- a)metilxlorid;
- b) metilenxlorid;
- v) etilxlorid;
- g) dixloretan;

15.Freonlar deb ataluvchi birikmalarini sovutuvchi moddalar sifatida, aerosol aralashmalar taylorlashda, ftororganik moddalar simbez qilishda ishlatiladi. Freon-142 ga mos keluvchi formulani ko'rsating.

- a)diftorxlorometan
- b) dixlorftormetan
- v) xloretan
- g) dixlortetraftoretan

3-LABORATORIYA ISHI

Mavzu: YOD BENZOLSINTEZI.

Darsning maqsadi. Laboratoriya sharoitidaanilindan yodbenzol sintez qilish. Yod benzolhaqida tushunchaga ega bo'lish, uni sintezlashda asosiy reaktsiyalarni, tehnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.


Darsning ahaliyati. Aromatik birikmalarni sintez qilishni o'rganish hamda galogenlash jarayonini boshqara olish.

Nazariy qism. Aromatik galogenli hosilalar tuzilishiga ko'ra, 2 guruhga bo'linadilar:

a) galogen halqada va b) galogen yon zanjirda joylashgan birikmalarga bo'linadilar.

Benzoldagi bitta vodorodni galogenaga almashinishidan bitta, ikkita vodorodni galogenaga almashinishidan esa 3 ta galogenli birikma hosil bo'ladi.


Aromatik galogenli birikmalarni nomlashda aromatik uglevodorod asos qilib olinadi.




Olinish usullari. Aromatik uglevodorodlarga galogenlar bevosita ta'sir ettirilganda reaktsiya sharoitiga qarab galogen turlicha ta'sir etishi mumkin.

a) Galogen harorat va ultrabinafsha nur ta'sirida benzol halqasiga birikishi mumkin;

b) Katalizatorlar ishtirokida galogen benzol halqasidagi vodorodlar bilan almashinishi mumkin:




v) Yon zanjiradagi vodorodlar bilan almashinishi mumkin:



Galogenlar birinchi tur o'rinxbosarlari bo'lganligi tufayli benzolni galogenlash reaktsiyasida ikkinchi galogen atomi asosan para-holatdag'i vodorod bilan almashinadi. Lekin galogenlar boshqa birinchi tur o'rinxbosarlaridan farqli almashinish reaktsiyalarini qiyinlashtiradilar.

p-ftorbenzol xloringanda uchinchi galogen atomi xlorga nisbatan orto-holatga yo'naladi.




Buning sababi ftorning manfiy induktiv effekti xlornikidan kattaligidir:



$$-J_F > -J_{Cl}$$

Shuning uchun ftorla nisbatan o-holatda uglerod atomida elektron bulutning zichligi kichik bo'ladi.


1. Galoid arillarni aromatik aminobirkmalardan diazobirkimlar orqali hosil qilish mumkin. Bu usul bilan boshqa usullar yordamida olib bo'lmaydigan yodli va ftorli birikmalarni olish mumkin:



2. Galogeni yon zanjirada joylashgan aromatik galogenli hosilalarni olish uchun galogenalkanlarni olishdagi barcha usullardan foydalanish mumkin, masalan:




Bulardan tashqari aromatik galogenli birikmalarni olishda xlormetillash reaktsiyasidan keng foydalaniladi:




Fizik xossalari. Benzol va uning gomologlarining galogenli hosilalari suyuq yoki qattiq moddalar bo'lib, ftorli hosilalar past, yodli hosilalar esa yuqori haroratda qaynaydilar.

Masalan:



Ularning zichliklari 1 dan yuqori. Suvda erimaydilar. Ko'p organik erituvchilarda yaxshi eriydilar.

Aromatik galogenli birikmalar magniy bilan galogenalkanlarga uxshash osonlik bilan reaktsiyaga kirisha oladilar:



Ularning bu hususiyatidan foydalanib, halqadagi galogen osonlik bilan karboksil guruhi bilan almashinishi mumkin:



Ish bajarish uchun kerakli reaktivlar asboblar:

Brutto-formulasi $\text{C}_6\text{H}_5\text{J}$

Anilin - 9,3 g (9,1ml)

HCl ($d=1,19 \text{ g/sm}^3$) - 25 ml

NaNO_2 - 8 g

KJ - 20 g

Asboblar:

Chinni stakan - 250 ml

Yumaloq trubli kolba 500 ml

Tomchilovchi voronka



Aralashtirgich

Suv bug'i bilan haydash qurilmasi

Yod benzolni haydash uchun havo bilansovutuvchi qurilma

Ishning maqsadi:


Yodbenzol sintez qilish ikki bosqichda quyidagi sxema orqali amalga oshiriladi:



Ish bajarish tartibi:

1. 250 ml hajmdagi chinni stakanga 25 ml kontsentrlangan HCl , 25 ml H_2O solinadi
2. Bularning ustiga 9,3 g yangi xaydalgan anilin qo'shiladi.

3. Aralashma 1-2°C gachasovutiladi.
 4. 8 g NaNO₂ ni 20 ml suvdagi aralashmasi tomchilab tushuvchi voronkadan qo'shib boriladi.
 5. Ayni vaktda aralashmani doimiy aralashtirib turiladi.
 6. NaNO₂ – eritmasi reaktsiya aralashmasiga qo'shilayotganda temperatura 5°C dan oshmasligikerak.
 7. Buninguchun reaktsiya massasiga muz bo'lakchasin isolinadiyoki reaktsiya o'tkazilayotgan stakan muz yordamidasovutiladi.
 8. Reaktsiya tugaganini yod qogozidatekshiriladi.
 9. Hosil bo'lgan diazoniy tuzi eritmasida 30 ml suvda 20 g KJ eritilgan yumaloq tubli (500 ml) kolbaga doimiy aralashtirib turgan xolda qo'shiladi.
 10. Hosil bo'lgan aralashmani 2-2,5 soatga muzli hammomda qoldiriladi.
 11. So'ngra kolbaga havo sovitgichi ulanadi va qaynayotgan suvli hammom yordamida qizdiriladi.
 12. Qizdirish N₂ chiqib bo'lguncha davom ettiriladi, hosil bo'lgan eritmaga kontsentrlangan ishqor yoramida ishlov beriladi, bunda hosil bo'lgan ortiqcha fenol ishqor bilan birikadi.
 13. Yod benzolni suv bug'i yordamida haydaymiz. Haydash sovtgichdan moysimon og'ir tomchilar tushishi to'xtagunga qadar davom ettiriladi.
 14. So'ngra yodbenzol ajratiladi va CaCl₂ bilan quritiladi.
- Kichik kolbada qaynash temperaturasi 186-189°C bo'lgan fraksiya yig'iladi. Hosil bo'lgan mahsulot xajmi 15-16 g tashkil qiladi.



13-rasm. Yodbenzol sintez qilish qurilmasi

3-Laboratoriya ishiuchun mustaqil bajarish vazifalar

- 1.Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
- 2.Sintez qurilmasining rasmini chizing.
- 3.Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim						Chiqim					
Nº	Dastlabki reagentlar	Mol.	Zichligi, g/sm ³	Mas sad a	Xaj mda	Nº	Olingan mahsulotlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Mas sad a	Xaj mda
Jami:						Jami:					

- 4.Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab toping:

$$X = G_{\text{amal}} / G_{\text{naz}} * 100\% \quad \text{yoki}$$

$$X = V_{\text{amal}} / V_{\text{naz}} * 100\%$$

- 5.Yo`qotishlarni xisoblab toping:

$$Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$$

- 6.Etil bromid qaysi maqsadlarda foydalanishini yozing.

- 7.Pedagogik texnologiya usulini qo`llash.

Blits o`yin uslubida “Yod benzol olish” laboratoriya mashg’ulotlarini o’tkazish uslubiy bosqichlari.

“Blits o`yin” uslubida talabalarni laboratoriya mashg’ulotini tekshirish jadvalda keltirilgan Yod benzol olish sintez bosqichlarini to’g’ri ketma-ketligini belgilashdan iborat. Bunda talaba jadvalda keltirilgan tayyorlash bosqichiga raqamlar qo’yib chiqadi (yakka tartibdagi javob katagiga). So’ng, o’qituvchi tomonidan e’lon qilingan to’g’ri javoblar raqamlari “to’g’ri javob” katagiga yoziladi. Yakka tartibdagi va to’g’ri javoblar ayirmasi “xato” katagida qayd etiladi va ularning jami jadval ketida keltiriladi.

№	Tayyorlash bosqichlari	Yakka tartib	To'g'ri javob	Xato
1	Aralashma 1-2°C gacha sovutiladi.			
2	Hosil bo'lgan diazoniy tuzi eritmasida 30 ml suvda 20 g KJ eritilgan yumaloq tubli (500 ml) kolbaga doimiy aralashtirib turgan xolda qo'shiladi.			
3	Hosil bo'lgan aralashmani 2-2,5 soatga muzli hammomda qoldiriladi.			
4	Kolbaga havo sovitgichi ulanadi va qaynayotgan suvli hammom yordamida qizdiriladi.			
5	qizdirish N ₂ chiqib bo'lguncha davom ettiriladi, hosil bo'lgan eritmaga kontsentrlangan ishqor yoramida ishlov beriladi, bunda hosil bo'lgan ortiqcha fenol ishqor bilan birikadi.			
6	250 ml hajmdagi chinni stakanga 25 ml kontsentrlangan HCl, 25 ml H ₂ O solinadi.			
7	Ustiga 9,3 g yangi xaydalgan anilin qo'shiladi.			
8	Ayni vaktda aralashmani doimiy aralashtirib turiladi.			
9	8 g NaNO ₂ ni 20 ml suvdagi aralashmasi tomchilab tushuvchi voronkadan qo'shib boriladi.			
10	NaNO ₂ – eritmasi reaktsiya aralashmasiga qo'shilayotganda temperatura 5°C dan oshmasligikerak.			
11	Reaktsiya tugaganini yod qogozidatekshiriladi.			
12	Reaktsiya massasiga muz bo'lakchasinisolinadiyoki reaktsiya o'tkazilayotgan stakan muz yordamidasovutiladi.			
13	Yod benzolni suv bug'i yordamida haydaymiz. Haydash sovutgichdan moysimon og'ir tomchilar tushishi to'xtagunga qadar davom ettiriladi.			
14	So'ngra yodbenzol ajratiladi va CaCl ₂ bilan quritiladi.			

Baxolash mezoni

Agar xatolar yig'indisi: 8dan ko'p bo'lsa - "qoniqarsiz"

6-8 gacha –qoniqarli

3-5 gacha- "yaxshi"

2 gacha "ahlo"

Bahoga talaba laboratoriyamashg'ulotini o'zlashtirdideb hisoblanadi

Nazorat savollari

1. Aromatik uglevodorodlar va ularning xossalari.
2. Aromatik uglevodorodlar olishda qanday reaktsiyalardan foydalaniladi?
4. Aromatik uglevodorodlarga tarif bering.
5. Ishni bajarishda qanday reaktiv va reagentlar ishlatiladi?
6. Anilindan yodbenzol hosil bo'lish reaktsiyasini yozing.
7. NaNO_2 –eritmasi reaktsiya aralashmasiga qo'shilayotganda harorat nechag radusni tashkil etadi?
8. CaCl_2 nima uchun ishlatiladi?

1-misol. 1tonna Benzol xlorlanish natijasida qancha issiqlik ajralib chiqadi. Oxirgi maxsulotda 39% xlorbenzol, 1% dixlorbenzol, 60% benzol xosil buladi. Benzol -49,063 kDj/ molg', xlorbenzol-52,17 kDj/ molg', dixlorbenzol-53,054 kDj/ molg', vodorodxlorid-92,36 kDj/ molg' issklikka ega. Moddalarni molekulyar massasi:benzol-78; xlorbenzol-112,5; dixlorbenzol-146. Benzolni xlorlanish reaktsiya tenglamasini yozing.

2-misol. Geksen (C_6H_{12}) bromli suvni va kaliy permanganatlri suvni rangsizlantiradi. Geksen suv bilan reaktsiyaga kirishganda ikkilamchi spirit, xrom birikmasi bilan birikkanda kislota xosil buladi. Reaktsiya tenglamasini yozing. Maxsulotlarni nomlang.

3-Laboratoriya ishi nazorat Testlari.

1.Laboratoriya sharoitida Yodbenzol muddasini sintez qilishda necha bosqichda boradi?

- a)2 bosqichda;
- b) 3 bosqichda;
- v) 1bosqichda;
- g) 4 bosqichda;

2.Laboratoriya sharoitida Yodbenzol muddasini sintez qilishda qanday moddalardan foydalaniladi?

- a)anilin, natriy nitrat, xlorid kislota, kaliy yod;
- b) benzol, natriy nitrat, xlorid kislota, kaliy yod;
- v) xloridbenzol, natriy nitrat, xlorid kislota, kaliyxlor;
- g) yodbenzol, natriy nitrat, xlorid kislota, kaliy yod;

3.Benzolni etilen bilan alkilanishidan qanday birikma olinadi?

- a) etilbenzol
- b) Toluol
- v) ksilol
- g) m-ksilol

4. 2-metilpentadien-1,3 ga brom ta'sir ettirilganda qanday birikma hosil bo'ladi?

- a) 2-metil-1,4-dibrompentan-2
- b) 2-metil- 2,3- dibrom penten-1
- v) 3-metil-1,4 dibrompentan
- g) 2-metil-1,2-dibrompenten-3

5.Etilenga brom ta'sir ettirilsa qanday modda hosil bo'ladi?

- a) 1,2-dibrometan
- b) brometan
- v) etan
- g) 1,1-dibrometan

6.metilyodid bilan etilyodid aralashmasiga natriy metali ta'sir etib sintez qilinganda necha hil alkan hosil bo'ladi?

- a) 1 hil;
- b) 2 hil;
- v) 3 hil;
- g) 4 hil;

7.Benzol metal katalizatorlar ishtirokida gidrogenlanganda qanday birikma hosil bo'ladi?

- a) toluol;
- b) ksilol;
- v) siklogeksagidrobenzol;
- g) trimetilbenzol;

8.Gidrolizlanish reaktsiyasi deb nimaga aytildi?

- a) suvni birikishi;
- b) moddani suv bilan parchalanishi;
- v) vodorod birikishi;
- g) vodorod almashinishi;

9. Benzolga alyuminiyxlorid ishtirokida propilen ta'sir ettirib sintez qilinganda qanday birikma hosil bo'ladi?

- a) propilbenzol;
- b) izopropilbenzol;
- v) metilbenzol;
- g) metiletilbenzol;

10. Benzolga platina yoki nikel katalizatorligida vodorod yodid ta'sir ettirib sintez qilinganda qanday birikma hosil bo'ladi?

- a) yodbenzol;
- b) diyodidbenzol;
- v) siklogeksanon;
- g) siklogeksan;

11. Misgidroksidi bilan qanday modda reaktsiyaga kirishganda to'q havo rang eritma hosil bo'ladi.

- a) gliserin;
- b) etilenglikol;
- v) butanol;
- g) propanol;

12. Etilbenzol katalizatorlar xromoksid, ruhoksid ishtirokida $450\text{-}500^{\circ}\text{C}$ da qizdirib sintez qilinganda.....hosil bo'ladi.

- a) benzol;
- b) metilbenzol;
- v) propilbenzol;
- g) vinilbenzol(stirol);

13. Uglevodorodning xlorli hosilasini vodorodga nisbatan zichligi 49 ga teng. Uning tarkibida 24,24% uglerod, 4,04% vodorod va 71,72% xlor borligi sintez orqali aniqlandi. Uglevodorodning galloidli hosilasini molekulyar formulasini aniqlang?

- a) metilxlorid;
- b) metilenxlorid;
- v) etilxlorid;
- g) dixloretan;

14. Benzolga alyuminiyxlorid ishtirokida xlor ta'sir etib sintez qilingandahosil bo'ladi.

- a) xlorbenzol;
- b) o-dixlorbenzol;
- v) m-dixlorbenzol;
- g) geksaxlorbenzol;

15. Benzilxloridga suv ta'sir ettirilganda qanday birikma hosil bo'ladi?

- a) benzilspirt;
- b) fenol;
- v) dioksibenzol;
- g) benzoykislota;

4-Laboratoriya ishi

Mavzu: Etil spirti sintezi.


Darsning maqsadi. Talabalarga etil spirti sintezi misolida sintez jarayonlarini olib borish, optimal shart-sharoitlari, parametrlari va maxsulot chiqishi unumdonligi haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Darsning ahamiyati. Talabalarga etil spirtini turli soxalardagi ahamiyatini tushuntirish.


Nazariy qism. To'yingan bir atomli spirlarning umumiyl formulasini $C_nH_{2n+1}OH$ yoki $R-OH$ bilan ifodalash mumkin. Spirlarning izomeriyasi uglevodorod zanjirining tuzilishiga va gidroksil guruhinig zanjirdagi joylashuv holatiga bog'liq bo'ladi.

Olinish usullari. Spirlar olishning bir necha usullari ma'lum. Quyida shulardan ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Spirlarni galoid alkillarni suv yoki ishqorning suvli eritmasi bilan qo'shib qizdirish orqali olish mumkin:




Etilen uglevodorodlariga katalizatorlar ishtirokida suv biriktirilganda bir atomli spirlar hosil bo'ladi. Katalizator sifatida asosan konsentrangan sulfat kislotadan foydalaniladi. Etilen uglevodorodlariga suvning birikish quyidagi bosqichlar orqali sodir bo'ladi:




Bu jarayon mis, kobalt, nikel, platina. Palladiy katalizatorligida 300-500°C haroratda olib boriladi.

Aldegid va ketonlarga magniy organik birikmalarni biriktirish orqali birlamchi, ikkilamchi yoki uchlamchi spirlar olinadi. Karbonil guruhi kuchli qutblangan bo'lganligi uchun ularga nukleofil agentlar oson birika oladi:




Hosil bo'lgan oraliq modda suv ishtirokida juda oson parchalanadi:



Bu usul bilan spirtlarni tuzilishini oldindan belgilangan holda sintez qilish mumkin.


Sanoatda etil spirtini pentazan saqlovchi tabiiy birikmalar – uglevodlarni fermentlar ishtirokida bijg'itish orqali olinadi. Masalan:



Bijg'itishni 4 % li sulfat kislota ishtirokida ham olib borish mumkin. Shu usul bilan g'o'zapoya, yog'och chiqindilari, oziq-ovqat chiqindilari va boshqalardan ko'p miqdorda etil spirti ishlab chiqariladi.

Spirtlarning fizik xossalari. Spirtlarning C_{10} gacha bo'lganlari suyuqlik va undan yuqorilari qattiq moddalardir. Dastlabki vakillari suv bilan istalgan nisbatta aralashadi. O'ziga hos hidga ega. Ularning molekulyar massalari ortib borishi bilan suvda eruvchanligi kamayib hidi yoqimsiz bo'lib boradi, qaynash harorati ham ortib boradi. Normal tuzilishga ega bo'lgan spirtlar izomerlariga qaraganda yuqori haroratda qaynaydilar.

Spirtlar vodorod bog'lanishi hosil qilganligi sababli yuqori haroratda qaynaydilar:




Spirtlar orasida metil spirti o'ta zaharli hisoblanadi, uning 10 ml inson ko'rish qobiliyatini yo'qotishiga, 30 ml esa o'limiga sabab bo'ladi.


Spirtlarning kimyoviy hossalari. Bir atomli spirtlar kimyoviy jihatdan nisbatan faol birikmalar bo'lib, ular OH – guruhdagi vodorod atomi, hamda OH – guruh bog'langan uglevodoroddagi vodorodlar hisobidan kimyoviy jarayonlarga kirisha oladilar.

Bir atomli spirtlar neytral xarakterga egadirlar. Ammo ular juda kam darajada amfoterlik hususiyatini namoyon qiladilar.

Ularga ishqoriy metallar bilan ta'sir etilganda gidroksil guruhining vodorodi metall bilan almashadi va alkogolyatlarni hosil qiladi:



suv bilan ta'sir etilganda ular oson parchalanadilar:



Etil spirti (vino spirti, etanol) , $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ — bir atomli alifatik spirlarning muhim vakili. Molekulyar massasi- 46,069. Rangsiz, o'tkir ta'mli, spirlarga xos hidli suyuqlik. Suyuqlanish temperaturasi — $114,5^\circ$, qaynash temperaturasi $78,39^\circ$, zichligi $789,27^\circ \text{ kg/m}^3$ (20°da). Suv bilan cheksiz aralashadi va tarkibida 95,57% spirt, 4,43% suv bo'lgan azeotrop aralashma hosil qiladi. Etil spirti sanoatda tarkibida qand (shakar) bo'lgan moddalardan achitqilar ta'sirida quyidagi reaksiya orqali olinadi:



Xom ashyo sifatida glyukoza yoki uzum sharbatidan foydalanilganda tarkibida 8 dan 16% gacha etil spirti bo'lgan uzum vinosi hosil bo'ladi. Ko'pincha polisaxaridlar (kraxmal yoki tsellyuloza) xom ashyo sifatida qo'llanadi. Etil spirtini umumiyl formulasi ($\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5$) bo'lgan polisaxaridlardan ham olish mumkin. Bunda ular to'la gidrolizga uchratilib glyukozaga, so'ngra spirtga aylantiriladi. Kraxmalli xom ashylar sifatida boshoqli o'simliklar — bug'doy, arpa, sholi, jo'xoridan, shuningdek, kartoshkadan foydalaniladi. Etilspirti sanoatda bir necha yo'llar bilan sintez qilinadi. Yog'och gidrolizatini achitish yo'li bilan gidroliz spirti olinadi. Uning tarkibida 2% gacha zaharli modda — metil spirti (metanol) bo'ladi. Sulfat kislota ishtirokida etilenni gideratsiya qilish reaksiyasidan ham Etil spirti olishda keng foydalaniladi.

Ishlab chiqarilgan etil spirtining assosiy qismi divinil olishda, etil efir, xloroform, xloral, o'ta sof etilen, etilatsetat, murakkab efirlarvaerituvchilar ishlab chiqarishda qo'llanadi. Etil spirti tibbiyotda, farmatsevtikada, atir-upa sanoatida, bo'yoqchilikda, antiseptik vositalar tayyorlashda ishlataladi. Etil spirti — muhim antifrizlardan biri. Undan oziq-ovqat sanoatida, turli spirtli ichimliklar va dorivor damlamalar tayyorlashda ham foydalaniladi.

Etil spirti narkotik modda. Uzoq vaqt iste'mol qilinsa, nerv, meda-ichak, yurak-tomir sistemalari, jigar qattiq zararlanadi.

Brutto formulası -C₂H₅OH
Molekulyar massası -46,069 g/mol
Suyuqlanış harorati -114,3°C

Reaktivlar

Glyukoza 15 gr

Distililangan suv 150 ml

Droja 5 gr

Jihozlar: 500 ml Vyurskolbasi, qaytarsovutgich, termometr, shtativ, gazgorelkasi, diflimator, suvxammomi, stakan, alonj.

Reaktsiyatenglaması



Ishningtartibi

1. 200 ml hajmlistikta 15 gr glyukoza, 150 ml suvsolinib, yaxshilabaralashtiriladi.

2. Tayyorlanganeritmaga 5 gryaxshilabmaydalangan achitqi (droja)soliniberitmaholigakeltiriladi

3. Bir haftaga qoldirilibbiyg'itiladi.


4. Bijg'itilganaralashma 35-40°C dagazgorelkasiyordamidaqizdiriladi.

5. Hosilbo'lgankarbonatangidridkalsiyigidroksideritmasigao'tkaziladi.

6. Karbonatangidridgazidanxolibo'lganeritma fraksiyalabhaydabolinadi. 78°C da etilspirtihaydaladi.

Laboratoriyyada 99,5% lietilspirtini olish uchun soat davomida CaO kalsiyoksid bilan qaynatilib haydabolinadi.

Tarkibidagi suv miqdoriniyoq'otish uchun natriymetalidan foydalaniлади.



14-rasm. Etil spirtini olish uskunasi.

1-elektr plita; 2-haydash kolbasi ; 3- mahkamlagich; 4-termometr; 5- shtativ; 6-to'g'ri sovutgich; 7-alonj; 8- yig'gich kolba.

4-Laboratoriya ishi uchun mustaqil bajarish vazifalar

1. Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
2. Sintez qurilmasining rasmini chizing.
3. Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.


Kirim						Chiqim					
No	Dastlabki reagentlar	Mol . og., g.	Zic hlig i, g/s m ³	Mass ada	Xajm da	No	Olingan mahsulotl ar	Mol . og., g.	Zic hlig i, g/s m ³	Mass ada	Xaj mda
Jami:				Jami:							

Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali hisoblab toping:

$$X = G_{\text{naz}} / G_{\text{amal}} * 100\% \quad \text{yoki}$$

$$X = V_{\text{naz}} / V_{\text{amal}} * 100\%$$

4. Yo`qotishlarni hisoblab toping: $Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$
5. Etilspirtiniqaysisohadaqaysimaqsadlarda ishlatilishiniyozing.
6. Pedagogik texnologiya usulini qo'llash. Klaster usulidan foydalanib etilspirtiniqaysimaqsadlarda ishlatilishiniyozing.



1-misol.

Etilen havo bilan oksidlanganda qancha miqdorda etilenoksidи hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan gaz miqdorida etilen-3% ni, havo-97% ni tashkil qiladi. 1 tonna etilenoksidini olinish miqdorini aniqlang.

2-misol.

Oktenni ikki xil izomerini quyidagi moddalar bilan reaksiya tenglamasini yozing: 1) vodorodbromid; 2) gidratlanish natijasida Vyurts reaksiyasi yordamida galogenalkil hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamasini oraliq mahsulotlari bilan yozing.

4-Laboratoriya ishi nazorat Testlari.

1.Laboratoriya sharoitida etilspirtini sintez qilishda qanday moddalar ishlataladi?

- a)glyukoza; droja; distirlangan suv;
- b) glyukoza; spirt; droja;
- v) glyukoza; etilen; distirlangan suv;
- g) glyukoza; etan; droja;

2.Etilen bilan suv orasidagi reaktsiya natijasida qanday modda hosil bo'ladi?

- a)izopropil spirt
- b) Atseton
- v) Sirkalik etil efiri
- g) Sirkalik kislotasi

3. Uch atomli spirtlarni sintez qilishda qanday modda hosil bo'ladi ?

- a)Glitserin
- b) Metanol
- v) Etanol
- g) Etilenglikol

4.Spirtlar kislotalar bilan sintez qilinganda qanday modda hosil bo'ladi?

- a)murakkab efirlar
- b) Karbon kislotasi
- v) Aromatik uglevodorodlar
- g) Yog'lar

5.Quyidagi birikmalarning qaysi biri natriy metali bilan reaktsiyaga kirishadi?

- a)etanol
- b) etan
- v) benzol
- g) etilen

6.Etilenglikol qaysi organik birikmaga kiradi?

- a)ko'p atomli spirtlar
- b) murakkabefirlar
- v) 1 atomli spirtlar
- g) karbonkislotalar

7.Normal sharoitda 1 mol spirtni to'la yonishi uchun necha litr kislorod kerak bo'ladi?

- a)201,6
- b) 11,2
- v) 22,4
- g) 44,8

8.Keltirilgan moddalarning qaysi biridan etilenglikol moddasini sintez qilish mumkin?

- a) etan ,suv, kaliypermanganat(kat);
- b) etilen, suv,kislorod;
- v) etilen, suv;
- g) etan ,suv, aluminiyxlorid(kat);

9.Uchlamchi butilspirt katalizator ishtirokida sintez orqali degidradlangandahosil bo'ladi?

- a)metan;
- b) etilen;
- v) izobutilen;
- g) butilen;

10.Etilspirt bug'ini katalizatorlar aluminiyoksid va ruhoksid ustidan o'tkazilganda qanday birikma hosil bo'ladi?

- a)butadien-1,3;
- b) butadien-1,1;
- v) butadien-1,2;
- g) butadien-2,3;

11.Yodbenzolga mis metali katalizatorligida ammiak ta'sir ettirilganda qanday birikma hosil bo'ladi ?

- a)benzil spirt;
- b) benzoy kislota;
- v) nitrobenzol;
- g) aminobenzol (anilin);

12.Etanol nima sababdan dimetilefirga nisbatan yuqori qaynash haroratiga ega?

- a)Etil spirtida gidroksil guruhi bo'lgani uchun ;
- b) Etil spirtida molekulalararo vodorod bog'lanishi bo'lgani uchun;
- v) Etil spirti odatdag'i sharoitda suyuq bo'lgani uchun;
- g) spirtning suvda eruvchanligi efirga nisbatan yuqoriligi uchun;

13.Izopropil spirt sintez orqali oksidlanganda qanday moddalar hosil bo'ladi?

- a)chumoli al'degid; suv;
- b) aseton; karbonat angidrid; suv;
- v) aseton; suv;
- g) sirka al'degid; suv;

14.Grinyar reaksiyasi bo'yicha ikkilamchi spirtlar... olinadi.

- a)aldegidlardan ,
- b) ketonlardan ,
- v) efirlardan,
- g) murakkab efirlardan

15.Etil spirt bilan fenol aralashmasiga mo'l natriy metali ta'sir ettirilganda 6,72 l vodorod ajralib chiqdi. Xuddi shu aralashmani to'liq neytrallash uchun kaliy gidroksidning 40% li eritmasidan ($\rho=1,4$ g/ml) 25 ml kerak bo'ldi. Aralashmaning tarkibini (massaga ko'ra % da) aniqlang.

- a) 40,4% etilspirt; 59,6% fenol
- b) 42,4% etilspirt; 50,6% fenol
- v) 41,4% etilspirt; 55,6% fenol
- g) 40,4% etilspirt; 56,6% fenol

16.Etil spirti va fenoldan iborat aralashmaga natriy metali ta'sir ettirilganda 2,24 l (n.sh.da) H_2 gazi ajralib chiqqan bo'lsa, xudda shunday massali aralashmaga brom ta'sir ettirilganda 33,1 g massali tribromfenol hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashma tarkibidagi har bir moddaning massa ulushi (% da)ni aniqlang.

- a) 67,15% etilspirt; 32,85% fenol;
- b) 62,15% etilspirt; 30,85% fenol
- v) 63,15% etilspirt; 31,85% fenol;
- g) 65,15% etilspirt; 32,85% fenol



**5-Laboratoriya ishi
Mavzu:
ETILATSETATSINTEZIQLISH**


Darsning maqsadi.Etil atsetat sintez qilish, sintezlashda asosiy reaksiyalarni, texnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.

Darsning ahamiyati.Etil atsetat sintez qilish haqida tushunchaga ega bo'lish,o'rganish.

To'yingan bir asoslikarbon kislotalarda gidroksil vodorodining kislota qoldig'i bilan almashinishidan kislota angidridlari xosil bo'ladi.



Amalda kislota angidridlarini kislota galogenangidridlariga shu kislotaning tuzini ta'sir ettirib olinadi.



Karbon kislota angidridlari bir xil kislota qoldiqlarini saqlasa oddiy angidridlar, xar xil kislota qoldiqlarini saqlasa aralashgan angidridlar deyiladi.

Oddiy va murakkab efirlar kislota va spirtni o'zaro ta'sir ettirish yoli bilan olinadi, bu eterifikatsiya reaktsiyasi deyiladi. Eterifikatsiya reaktsiyasi katalizator ishtirokisiz juda sekin boradi, chunki karbon kislotadagi karbonil guruh juda sust faollikka ega.

Etil asetat $\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{CH}_3$ formulaga ega bo'lgan organik birikma, rangsiz suyuqlik, hushbo'y xidga ega.

Brutto-formulasi- $\text{C}_4\text{H}_8\text{O}_2$

Molekulyar formulasi-88 g/mol

Reaktivlar:

Etilspirti - 35,5 (45 ml)

Sirkakislota - 42 g (40 ml)

Sulfatkislota ($d=1,84 \text{ g/sm}^3$) - 5 ml

Jixozlar:


Vyurskolbasi - 250 ml

Ajratgichvoronka

Libixsovutgichi

Suvnihaydashqurilmasi


Reaktsiya tenglamasi:




Ishbajarishtartibi:

1. Libixsovutgichivaajratgichvoronkaulangan 250 mlxajmdagi Vyurskolbasiga, 5 mletilspirtiva 5 ml kontsentrlangan sulfatkislotasini(H_2SO_4) quyib moyhammomida 140°C gacha qizdiriladi.
2. So'ngra ajratgich voronkaga 40 ml sirkakislotsasi va 40 ml etil spirti solinadi.
3. Temperatura 140°C ga etishi bilan ajratgich voronkadagi aralashmani tomchilab turiladi. Tomchilash tezligi sovitgichdan tomchilab tushish tezligi bilan bir xil bo'lishi kerak.
4. Hosil bo'lgan aralashmani ajratish voronkasiga solinadi va kontsentrlangan soda eritmasi bilan yuviladi.
5. Sirkakislotsasi bor yoki yo'qligi lakkus qog'ozida tekshiriladi.
6. Efir qatlami ajratiladi va reaktsiyaga kirishmagan etil spirtini ajratish uchun to'yingan CaCl_2 - kaltsiy xlorid eritmasi qo'shib chayqatiladi (spirt $\text{CaCl}_2 \cdot 2\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ molekulyar kristall birikma hosil qiladi).
7. Efir qatlami suvdan ajratiladi va Na_2SO_4 bilan quritiladi.
8. Efir Vyurs kolbasida haydaladi. $71-75^\circ\text{C}$ da spirt va etil atsetat aralashmasi, 75°C da etil atsetat haydaladi.

Toza etilatsetatning qaynash temperaturasi 78°C, hosil bo‘lgan mahsulot 40 g tashkil qiladi.



15-rasm. Sintez moslamasi.



16- rasm. Haydash moslamasi.

1-haydash kolbasi, 2-Vyurs nasadkasi, 3-termometr, 4-muzlatgich, 5-alonj, 6-yig’gich kolba, 7- elektr isitgich, 8-shtativ

5-Laboratoriya ishiuchun mustaqil bajarish vazifalar

- 1.Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
- 2.Sintez qurilmasining rasmini chizing.
- 3.Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim						Chiqim					
Nº	Dastlabki reagentlar	Mol . og., g.	Zic hlig i, g/s m ³	Mass ada	Xajm da	Nº	Olingan mahsulotlar	Mol . og., g.	Zic hlig i, g/s m ³	Mass ada	Xaj mda
	Jami:						Jami:				

4. Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab toping:

$$X = G_{\text{amal}} / G_{\text{naz}} * 100\% \quad \text{yoki}$$


$$X = V_{\text{amal}} / V_{\text{naz}} * 100\%$$

5. Yo`qotishlarni xisoblab toping:

$$Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$$

6. Etil atsetathaqida ma'lumotlar va ahamiyatini yozing.

7. Pedagogik texnologiya usulini qo'llash. Klaster usulidan foydalanib murakkab efirdan olinadigan moddalarni reaktsiya tenglamasini yozing.



1-misol. Propan-propilen gazlar fraktsiyasida 30% propilen, 70% propandan 1 tonnafenol olish uchun qancha benzol kerak bo'ladi. Oxirgi maxsulotda 90% izopropiobenzol -benzoldan, 93% izopropilbenzol- fenoldan olinganda. Moddalarni molekulyar og'irligi benzol-78, propilen-42, propan-44, fenol-94.

2-misol. Nomalum A modda ozonlanish natijasida B va V modda xosil buladi. B modda reaktsiya davomida uksus kislotasigaayylanadi. Kislotani molekulyar massasi-102. A, B, V moddalarni aniklang, reaktsiya tenglamasini yozing.

5-Laboratoriya ishi nazorat Testlari.

- 1. Sanotda sintez qilingan etilatsetatni tozaligi necha foiz bo‘ladi.**
 - a. 90% qolgani suv, spirt, sirka kislota.
 - b. 94% qolgani suv, spirt, sirka kislota.
 - c. 97% qolgani suv, spirt, sirka kislota.
 - d. 100%
- 2. Etilatsetat tarkibidagi sirka kislotani yo‘qotish uchun.....**
 - a. 2% li xlorid kislota eritmasi ishlov beriladi.
 - b. suv bilan 3 marta yuviladi va 2% natriy gidroksid bilan ishlanadi.
 - c. natriy bikarbonatni 5% eritmasi qo‘shib chayqatiladi.
 - d. Ortiqchamoddalargeksanbilanneytrallanadi.
- 3. Etilatsetat tarkibidagi spirtni qanday neytrallash mumkin.**
 - a. natriy sulfat yordamida
 - b. spirtni haydash yo‘li bilan.
 - c. sulfat kislota ishtirokida
 - d. ajratgich voronkada kalsiy xloridning to‘yingan eritmasi bilan chayqatiladi.
- 4. Quyida toza etilatsetatni qaynash temperaturasini toping**
 - a. 69°C
 - b. 85°C
 - c. 77°C
 - d. 129°C
- 5. Etilatsetat tarkibidagi suv qanday quritiladi**
 - a. natriy metali bilan qizdiriladi
 - b. magniy metali bilan qizdirilib keyin haydaladi.
 - c. 5% li sulfat kislota bilan ishlov berib.
 - d. natriy sulfat yoki magniy sulfat yordamida quritiladi.
- 6. Izobutilbromid, ikkilamchi butilbromid aralashmasiga natriy metali qo‘shibqizdirsaqanday alkanlar hosil bo‘lishi mumkin**
 - 1) 2,5-dimetilgeksan
 - 2) 2,3,4,-tetrametilgeksan
 - 3) 3,4-dimetilgeksan
 - 4) 2,2,3,3-tetrametilbutan
 - 5) 3,3,4,4-tetrametilgeksan
 - 6) 2,4-dimetilgeksan
 - a. 1,3,4
 - b. 2,4,5
 - c. 1,3,6
 - d. 2,5,6
- 7. Etilatsetat izomerlarini toping**
 - 1)Sirka kislota
 - 2)Butan kislota

- 3) Propan kislota
4) Formic kislotaning izopropilefiri
- a. 1,2
 - b. 2,4
 - c. 4,5
 - d. 2,3
8. Noto‘g‘ri nomlangan moddalarni topping
- 1) -3propilgeptan
 - 2) 2-meti-3-etylbutan
 - 3) 4-butilizobutilnonan
 - 4) 4-zopropil5-butildeksan
 - 5) 3,4-dimetilpentan
 - 6) 3-etyl-4-propiloktan
- a. 2, 3, 5
 - b. 1,2,6
 - c. 2,6
 - d. 1,2,5,6
9. Uglerod tetraxlorid tarkibidagi uglerodning massa ulushini hisoblang.
- a. 7.79
 - b. 6.85
 - c. 8.5
 - d. 9.85
10. Quyida etilatsetat xosil bo‘lish reaktsiya tenglamasini topping
- a. $2\text{HOCOONa} + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HCOOH}$
 - b. $2\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_3 + 5\text{O}_2 = 4\text{CH}_3\text{COOH} + 2\text{H}_2\text{O}$
 - c. $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{C}_2\text{H}_5\text{OH} = \text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5 + \text{H}_2\text{O}$
 - d. $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{COOH} + \text{Br}_2 = \text{CH}_3\text{CHBrCOOH} + \text{HBr}$
11. Sirka kislota nima uchun muz sirka kislota deyiladi.
- a. $+16,6^{\circ}\text{C}$ dan past haroratda muz xolida kristal holatiga o‘tganligi sabab.
 - b. tashqi ko‘rinishi muzga o‘xshaganligi uchun.
 - c. 0°C past holatda muz holiga o‘tganligi uchun.
 - d. $+8^{\circ}\text{C}$ da muz xoliga o‘tganligi uchun.
12. Murakkab efirlar nima maqsadda ishlataladi.
- a. tibbiyotsovunlariishlabchiqarishda.
 - b. quvvatberuvchidorisifatida
 - c. elimlovchivositasifatida
 - d. salqinlantiruvchiimliklar, konfetlarvaparfumeriyada.
13. Tibbiyotda stenokardiya xurujini susaytiruvchi murakkab efirni topping
- a. izoamilmnitrit
 - b. sulfat kislotaning metil efiri
 - c. etiletonat

d. metiletonat

14. Murakkab efirlarga xos xarakterli reaktsiyasi.....

- a. aminlar bilan
- b. kislotalar bilan
- c. suv bilan.
- d. nitrat kislota bilan.

15. Chakka qon tomirlarni kengaytiruvchi efirni ko'rsating

- a. etilnitrit
- b. sirka kislotasini butil efiri
- c. metilizopropilefiri
- d. dietil efiri

**6-Laboratoriya ishi
Mavzu: Aspirin sintezi**

Darsning maqsadi. Aspirinhaqida tushunchaga ega bo'lish, uni sintezlashda asosiy reaktsiyalarni, texnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.


Darsning ahamiyati. Aspirinnisitez qilishni o'rghanish hamda atsetillash jarayonini boshqara olish.

1897 yil 10 avgustda nemis kimyogari Feliks Xoffman birinchi bo'lib atsetilsalisil kislotani sunniy usulda dori pereparatini kashf qildi.
-Atsetilsalisil kislota oq kristall kukunsimon modda, nordon tamga ega. Issiq suvda va spirtda yahshi eriydi;

-issiq tushiruvchi, og'riq qoldiruvchi hususiyatga ega;
-doim istemol qilinganda qon tomirlarini kengaytiradi, infarkt, insult kasalligini oldini oladi;

Atsetilsalisil kislota meditsinada revmatizmni davolashda, isitmani tushiruvchi va og'riqni qoldiruvchi, qon suyultiruvchi vosita sifatida foydalaniladi.

Aspirin sintez qilishda salisil kislotadagi fenol guruhidagi vodorod uksus kislotadagi - atsetil ($\text{CH}_3\text{CO}-$) almashinadi:



Reaktsiya karbon guruhidagi nukleofil almashinishga misol bo'ladi. Atsetilsalisil kislota suvda yomon eriydi, nordonroq tamga ega bo'lgan kristall modda. Havoda juda oson gidrolizlanib, salisil va sirka kislotalarni xosil qiladi. Preparatni gidrolizlanganini tekshirish uchun temir(III)- xlorid bilan tekshiriladi. Atsetilsalisil kislota FeCl_3 bilan tekshirilganda bo'yalmagan xolda, salisil kislota binafsha rang hosil qiladi.

Brutto-formulasi $\text{C}_9\text{H}_8\text{O}_4$

Molekulyar formulasi 180,17 g/mol

Suyuqlanish harorati 135°C

R e a k t i v l a r:

salitsil kislota – 5 g,

sirka angidridi ($d_{4}^{20} = 1,082 \text{ g/sm}^3$) – 5,4 g (5 ml),

konsentrangan sulfat kislota ($d_{4}^{20} = 1,84 \text{ g/sm}^3$) – 0,25ml,



toluol – 150 ml

J i x o z l a r: sig'imi 50 ml bo'lgan tagi dumaloq kolba, Bunzen kolbasi, Byuxner voronkasi, qaytar sovutgich, suv hammomi, termometr, kristallizator.

Ish tartibi.

1. Havo sovutgichi o'rnatilgan sig'imi 50 ml bo'lgan tagi dumaloq kolbaga 5 g salitsil kislota solinadi.
2. Ustiga 5 ml sirka angidrid solinadi.
3. 3 tomchi konsentrangan sulfat kislotadan qo'shiladi.
4. Aralashma suv hammomida 60°C da 1 soat qizdiriladi.
5. Keyin haroratni $90-95^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarib yana 1soat qizdiriladi. Aralashma sovitilganda aspirin kristallari cho'kmaga tushadi.
6. Cho'kma Byuxner voronkasida filtrlanadi. Avval suv bilan, keyin sovuq toluol bilan yuviladi. 5,7g atrofida atsetilsalisil kislota hosil bo'ladi (87%).
7. Atsetilsalisil kislota rangsiz kristall modda bo'lib, suvda yomon eriydi, etil spirtda, dietil efirda yahshi eriydi.

Reaktsiya tenglamasi



17- rasm. Sintez moslamasi.

1 – Qaynash uchun mo’ljallangan kolba; 2 – teskari sovutgich;
3 –laboratoriya shtativi; 4 – elektr qizdirgich; 5 – kaltsiy xloridli trubka (quritgich).

6-Laboratoriya ishi uchun mustaqil bajarish vazifalar

- 1.Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
- 2.Sintez qurilmasining rasmini chizing.
- 3.Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim						Chiqim					
No	Dastlabki reagentlar	Mol . og., g.	Zic hlig i, g/s m ³	Mass ada	Xajm da	No	Olingan mahsulotlar	Mol . og., g.	Zic hlig i, g/s m ³	Mass ada	Xaj mda
Jami:						Jami:					

4.Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab toping:

$$X = G_{\text{amal}} / G_{\text{naz}} * 100\% \quad \text{yoki}$$


$$X = V_{\text{amal}} / V_{\text{naz}} * 100\%$$

5.Yo`qotishlarni xisoblab toping:

$$Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$$

6.Aspirin xaqida ma'lumotlar va axamiyatini yozing.

7.Pedagogik texnologiya usulini qo'llash. Yelpig`ich usulidan foydalanib aspirin sintezi jarayonida reaktsiya tezligiga ta`sir etuvchi omillarni ko`rsating .



1-misol.

Sirka kislota olish uchun 1 tonnaatsetaldegiddan qancha tabiiy gaz kerak buladi(metan 97% bulganda). Oxirgi maxsulotda metandan atsetilen olish 15%, atsetilindan atsetaldegid olish-60%, atsetaldegiddan sirka kislota -90% ni tashkil qiladi.

Molekulyar massa: atsetilen-26, metan-16, atsetalg'degid-44, sirka kislota-60.

2-misol.

Izobutilenden 2,5-dimetilgeksan va 2,2,4-trimetilpentan (izooktan)ni sintez qiling. Reaktsiya tenglamalarini yozing.

6-Laboratoriya ishi nazorat Testlari.

1. Aspirin olish uchun qanday reaktivlardan foydalanildi?

- chumoli kislota va propion spirti, trietilamin.
- salitsil kislota va sirka angidrid, sulfat kislota
- salitsil kislotani etil efiri va gidrazin gidrat
- Sirka kislota va etil spirti

2. Aspirin olishda eng kerakli jixozlar tartibi:

- a. Sig‘imi 50 mltagidumaloqkolba, qaytarsovutgich,suvxammomi,shtativ, termometr,elektrisitgich.
- b. Sig‘imi 100 mltagiyumaloqkolba,shtativ,termometr,qumxammom
- c. Sig‘imi 200 mltagiyumaloqkolba, moyxammom, shtativ,qaytarsovutgich,elektrisitgich.
- d. Sig‘imi 50 mltagiyumaloqkolba, qaytarsovutgich, muzxammomi,shtativ

3. Aspirin olish uchun havo Sovutgich o‘rnatilgan sig‘imi 50 ml bo‘lgan tagi dumaloq kolbaga 5 gr salitsil kislota solinadi va ustiga....

- a. 5 mlsirkaangidrid, 3 tomchikons. sulfatkislota,
- b. 10 mletilspirtiva 4 mlsulfatkislota
- c. 1 molkalsiyvakatalizator
- d. 10 mlmetilspirtivanitratasulfatkislota aralashmasi

4. Aspirin olishda reaktivlar solingandan so‘ng aralashma.....

- a. moy xammomida 90-100°C da 2 soat qizdiriladi
- b. qum xammomida 4 soat qizdiriladi
- c. suv xammomida 60°C da 1 soat, keyin 90-95°Cga ko‘tarib 1 soat qizdiriladi.
- d. 1 soat muz xammomda, keyin xona xaroratida 1 soat oboriladi.

5. Atsetilsalitsil kislota rangsiz kristall modda bo‘lib.....

- a. suvda yaxshi eriydi, etil spirtda va dietil efirda qisman eriydi.
 - b. suvda qisman eriydi, xloroform va atsetonda yaxshi eriydi.
 - c. suvda yomon eriydi, spirt va geksanda qisman eriydi.
 - d. suvda yomon eriydi, etil spirtda va dietilefirda yaxshi eriydi.
- 6. Sintez qilingan aspirinning Brutto formulasasi, molekulyar og‘irligi va suyuqlanish harorati to‘g’ri ko‘rsatilgan qatorni ko‘rsating**
- a. C_2H_5OH , 46 g/mol , qaynash harorati 78°C
 - b. $C_2H_5OC_2H_5$ 74 g/mol, qaynashharorati 34.6°C
 - c. C_7H_7Cl , qaynash harorati 179°C
 - d. $C_9H_8O_4$ molekulyar og‘irligi 180,17 g/mol, 135°C suyuqlanish harorati.

7. Quyidagi qatorlardan spirlarga berilgan ta’rifni toping.

- a. Tarkibida (okso-) $>C=O$ gurux tutgan birikmalar
 - b. Kislota tarkibidagi OH guruhi spirit guruhi almashgan mahsulotlar
 - c. Tarkibida karboksil guruhi $-C(O)OH$ tutgan birikmalar
 - d. Tarkibida bir yoki bir nechta gidroksil guruhi (-OH) tutgan alifatik uglevodorodlar.
- 8. Aspirinni IYUPAK nomenklaturasida nomlang.**
- a. fenolosalitsil kislota
 - b. metil salitsilat
 - c. 2-gidroksi benzoy kislota

d. 2-asetoksi-benzoy kislota


9. **Atsetilsalitsilat kislotasi hosil bo'lish reaktsiya nomini keltiring?**

- a. pereterifikatsiya
- b. eterefikatsiya
- c. perekristallizatsiya
- d. nitrolash reaktsiyasi

10. **Atsetisalitsil kislotadan Salol (fenilsalitsil kislota)ni qanday reagent yordamida bir-biridan farqlash mumkin?**

- a. NaOH
- b. NaHCO₃
- c. H₂SO₄
- d. PCl₅.

11. **Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshiring va olingan X₃ va X₄ moddalarini nomlarini keltiring:**



- a. Atsetilsalitsil kislota, fenol
- b. Salitsil kislota, Atsetilsalitsil kislota
- c. benzoy kislota, Aspirin
- d. Aspirin, Salol(fenil salitsilat)

12. **Xlormetan CH₃Cl bu**

- a. gaz, oson suyuqlanadigan, bug'latilganda juda ko'p issiqlik yutib, sovutkichinshoatlarida ishlatiladi
- b. erituvchi, motor yonilg'ilar sifatida
- c. sintetik yog'lar, surkov moylari ishlab chiqarishda
- d. tibbiyotda narkoz (kulduruvchi gaz) sifatida ishlatiladigan modda

13. **Etil bromid jarroxlikda qaysi maqsadda ishlatiladi?.**


- a. tibbiyotda narkoz uchun ishlatiladi.
- b. dorilar olishda
- c. tinchlantiruvchi vosita sifatida
- d. milkni vaqtincha og'riq sezmaydigan xolatga keltirish uchun ishlatiladi.

14. **Fenolokislotalar uchun eng xarakterli reaktsiya:**

- a. o'rinalish reaktsiyasi
- b. birikish reaktsiya
- c. ajralish reaktsiyasi
- d. parchalanish reaktsiyasi

15. **Salitsil kislotani yuqori temperaturada qizdirilish mahsulotlarini ko'rsating.**

- a. benzoy kislota, suv
- b. fenol, suv
- c. fenol, karbonat angidrid
- d. benzol, suv



7-Laboratoriya ishi Mavzu: Paratsetamol sintezi


Darsningmaqsadi. Paratsetamolhaqida tushunchaga ega bo'lish, uni sintezlashda asosiy reaktsiyalarni, texnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.

Darsning ahamiyati. Paratsetamol sintez qilishni o'r ganish hamda qayta kristallah jarayonini olib borish.

Paratsetamol kimyoviy sifatida N-asetil-para-aminofenol, 4'-gidroksiasetanilid yoki 4-asetamidofenol deb ataladi. Paratsetamol o'nlab yillar davomida ishlatilgan bo'lsa-da, ko'p harakatlar mexanizmi – ko'plab boshqa dori vositalari kabi uzoq vaqt davomida noma'lum bo'lgan.

Farmakologik xususiyatlari-paratsetamol nonarkotik analgetik vositalarga kiradi. Og'riqni qoldiruvchi, isitmani tushiruvchi va biroz yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega.

Paratsetamol sintezi:



Brutto-formulasi C₈H₉NO₂
Molekulyar formulasi 151 g/mol
Suyuqlanish harorati 168-169°C


R e a k t i v l a r: p-Aminofenol –1 g,
sirka angidridi ($d^{20}_4 = 1,082 \text{ g/sm}^3$) – 1,2 g
etanol –20ml,
aktivlangan ko'mir – 150 ml

J i x o z l a r: sig'imi 50 ml bo'lган tagi dumaloq kolba, Bunzen kolbasi, Byuxner voronkasi, qaytar sovutgich, suv hammomi, termometr, kristallizator.

Ish tartibi.

1. Havo sovutgichi o'rnatilgan sig'imi 50 ml bo'lган tagi dumaloq kolbaga 1 g p-aminofenolni 10 ml suvga aralashirgan holda solinadi.
2. Ustiga 1,2 ml sirka angidrid solinadi.
3. Aralashma 15 daqiqa p-aminofenolning to'liq erib ketgunicha suv hammomida qaynatiladi
4. Keyin qizdirilgan kolba sovutiladi va Byuxner varonkasida atsetilaminofenol cho'kmasi filtrlab olinadi
5. Cho'kma 10 ml suv bilan yuviladi va quritiladi
6. Paratsetamolni tozalash uchun perekristallizatsiya usulidan foydalaniladi. Bunda suyultirilgan etil spirti (45%) dan foydalaniladi (1 gr cho'kma uchun – 5 ml suv va 2 ml spirt)
7. Olingan maxsulotni 20 ml etanolda eritamiz va ustiga 0,1 g aktivlangan ko'mir solib qaynatamiz
8. Qaynab chiqqan massani byuxner voronkasida filtrlaymiz
9. Bunda filtr qog'ozda aktivlangan ko'mir, kolbada esa etanol aralashmasi ajraladi
10. Kolbadagi aralashma sovutiladi va p-atsetilaminofenol kristallari filtrlab olinadi. 6,5 g (87%) unum bilan mahsulot olinadi.

Reaksiya tenglamasi





18-rasm.Sintez qurilmasi.



Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.

1. Sintez qurilmasining rasmini chizing.
2. Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.
- 3.

Kirim						Chiqim					
No	Dastlabki reagentlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/s m ³	Massada	Xajmda	No	Olingan mahsulotlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Xajmda
Jami:						Jami:					

Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab toping:

$$X = G_{\text{amal}} / G_{\text{naz}} * 100\% \quad \text{yoki}$$


$$X = V_{\text{amal}} / V_{\text{naz}} * 100\%$$

4. Yo`qotishlarni xisoblab toping:

$$Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$$

5. Paratsetamolxaqida ma'lumotlar va ahamiyatini yozing.

6. Pedagogik texnologiya usulini qo'llash.Klaster usulidan foydalanib paratsetamol sintezi jarayonida perekristallizatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni ko`rsating .



1-misol.

Nomalum A modda gidratlanish natijasida B modda xosil bo'ldi, reaktsiyaga vodorod bromid, perikis vodorod tasirida V modda xosil bo'ldi, gidrolizlanish natijasida G modda xosil bo'ldi. D modda tasirida oksidlanib G modda xosil bo'ldi. Oxirgi maxsulotda murakkab efir xosil bo'ladi. Reaktsiya tenglamalarini yozing, oraliq maxsulotlarni ko`rsating.

2-misol.

Quyidagisintezni amalga oshiring, oraliqmaxsulotlarniko'rsating:

- a) 1-xlorpropandan izopropilspirt;
- b) 2-xlorpropandan propilspirt;
- v) etilendan propan kislota xosilqiling.

7-Laboratoriya ishi nazorat Testlari.

1. Amino-fenollar bu.....





- a. Molekulasi alfa amino kislotalardan tashkil topgan yuqori molecular birikmalar
- b. Tarkibida Purin va Pirimidin qoldiqlari tutgan nuklein kislotalardir
- c. Molekulalarida – amino va karboksil gruppalarini bo'lgan organik kislotalardir

d. Benzol halqasining – hidroksil va – amino gruppalari bilan bog'langan birikmasidir

2. Fenoldan Parasetomol sintez qilish nechta bosqichni o'z ichiga oladi

- a. 1
- b. 2
- c. 3
- d. 4

3. Parasetomol formulasini ko'rsating



4. Parasetomol molekulasi uchun qanday oreintatsiya hos

- a. Kelishilgan
- b. Kelishilmagan
- c. p- holat
- d. hech qanday oreintatsiya hos emas

5. Aminofenollar olishda nitro ($-NO_2$) hosilani qaytarishda qanday reagentlardan foydalanish mumkin

- a. $SnCl_2 \cdot 2 H_2O$, $NaBH_4$
- b. $NaBH_4$, $AlCl_3$
- c. $NaOH$, $Ba(OH)_2$
- d. C_2H_5OH , $NaCl$

6. $C_8H_9NO_2$ (p-asetilamino-fenol) ning molekulyar massasini hisoblang

- a. 88
- b. 96
- c. 151
- d. 110

7. Aminofenollar olishdagi nitrolash jarayoni katalizatorini ko'rsating

- a. HNO_3
- b. H_2SO_4
- c. HCl
- d. Al_2O_3

8. Parasetomol (p-asetilamino-fenol) ni IYuPAK nomenklaturasida nomlang

- a. N,N- diaseto-gidroksi benzol
- b. p-asetilamino-fenol
- c. N-asetil-fenol
- d. N-(4-gidroksifenil) asetamid

9. Parasetomol sintezining ohirgi bosqichi qanday reaktsiya mexanizmi asosida boradi

- a. Alkillash
- b. Atsillash
- c. Aminlash
- d. Nitrolash

10. p-asetilaminofenol perekristallisatsiya jarayoni uchun qo'llaniladigan moddani tanlang.

- a. Sirka kislota
- b. Etil spirit
- c. Suv

11. Quyidagi moddalardan qaysilari parasetomolni nitrobenzoldan farqlashga yordam beradi?

- 1.FeCl₃
 - 2.NaHCO₃
 - 3.HCl
 - 4.fenol
 - 5.ethanol
- a. 1,2,4
 - b. 1,2,5
 - c. 1,5
 - d. 3,5

12. parasetomol bn p-nitrofenolni qaysi modda yordamida farqlash mumkin?

- a.chumoli aldejidi
- b.propanon
- c.butan kislota
- d.atsetilen

14. parasetomoldagi – OH guruh kislotaligiga -NHCOCH₃ guruhning tasiri qanday?

- a.-OH ni kislotaligini oshiradi
- b. -OH ni asosligini oshiradi
- c. -OH ni kislotaligini kamaytiradi
- d.o'zgarmaydi

15. Qaytarish reaktsiyasi deganda nimani tushunasiz?

- a. molekulani vodorod bilan to'yintirish
- b. molekulaga galogen biriktirish
- c. molekulaga amin guruhi ta'sir etish
- d. molekulani kislorod bilan to'yintirish

Moddalar zichligi

1.Etil spirti— 0,7893 г/см ³	17.Vodorod xlorid— 1,477 г/см ³
2.Anilin—1,0217 г/см ³	18.Natriy karbonat— 2,53 г/см ³
3.Glyukoza— 1,5620 г/см ³	19.Izopropil spirt— 0,7851 г/см ³
4.Sirka kislota—1,0492 г/см ³	20.Siklogeksan— 0,962 г/см ³
5.Sulfat kislota —1,84 г/см ³	21.Nitrat kislota— 1,513 г/см ³
6.Sulfatkislota (kons.)—1,84 г/см ³	22. Natriy gidrosulfat— 2,472 г/см ³
7.Sirkaangidrid— 1,082 г/см ³	23. Malon kislota— 1,0553 г/см ³
8.Toluol— 0,867 г/см ³	24. Mochevina— 1,32 г/см ³
9.Etanol— 0,7893 г/см ³	25. Metanol— 0,7918 г/см ³
10.Ammoniy xlorid—1,526 г/см ³	26. Natriy metali— 0,971 г/см ³
11.Antronil kislota— 1,4 г/см ³	27. Formaldegid— 0,8153 г/см ³
12.Xinozolin— 1,351 г/см ³	28. Selyuloza— 1,5 г/см ³
13.Natriy xlorid— 2,165 г/см ³	29. Metilxlorid— 1,3266 г/см ³
14.Natriy gidroksid— 2,13 г/см ³	30. Benzol— 0,8786 г/см ³
15.Akrilonitril— 0,8064 г/см ³	31. Eтанол— 0,7893 г/см ³
16.Gidroxinonon— 1,36 г/см ³	32. Kaliy brom— 2,75 г/см ³
	33. H ₂ O— 1 г/см ³

Asosiy foydalanilgan adabiyotlar

1. О.С.Максумова.Органик моддалар синтези. Дарслик. Т.:“Навруз”, 2019.- 443 б.
2. Максумова О.,Турабжонов С. Органик синтез маҳсулотлари технологияси. Дарслик. Т.: Фан ва технология, 2010. - 232 б.
3. Смит В., Бочков А., Кейпл Р. Органический синтез. Пер.с англ.Смит В.А., Бочков А.Ф. - М.: Мир, 2001. - 573 стр.
4. Варттанян Р.С. Синтез основнқх лекарственнқх средств. Москва. Мед. информ. агентство, 2004.-845 стр.

Qo’shimcha adabiyotlar

5. Черных В.П. и др. Органическая химия. – Харков, 2007. – 776 с.
6. Черных В.П. и др. «Общий практикум по органической химии».Харков, «Основа», 2002.
7. Великородов А.В. Органический синтез. Учеб. пособие.–Астрахан 2016.-
8. В.С.Орехов, М.Ю.Субочева, А.А.Дегтярёв, Д.Н.Труфанов. Химическая технология органических веществ. Учебное пособие. –Тамбов:Изд-во ГОУ ГПО ТГТУ, 2010. – Ч. 4. –80 стр.

Веб-сайты

1. <http://www.orgchem.profesCOrjournal.ru>
2. <http://www.orgchem.ru>
3. www.ximia-nefti.ru